جديد

2026-yil 6-fevral
№ 6 (110)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!


Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

SAFARNOMA

Navoiy Hirotda, Kobulda Bobur



Tengri taoloning inoyati va Sarvari koinotning shafoati va ham pok ko‘ngilli chahoryorlarning himmati birlan tarix ming to‘rt yuz qirq yettida, sha’bon oyining o‘n birida, muborak jum’a kuni ko‘hna va navqiron shahri Shoshdan ulug‘ hazratlarimiz yotgan tuproqni ziyorat etmoq ilinjida yo‘lga tushdim.

(Davomi 6-7-sahifalarda).

DURDONA



Alisher NAVOIY

* * *

Agarchi yo‘q talabingdin dame qaror manga,
Irodat emgagidur bu, ne ixtiyor manga.

Visol davlatin ul kun o‘zumga jazm ettim.
Ki, hajr g‘ussasin etti havola yor manga.

Chu yor ko‘nglida bo‘lsam, balo manga yovumas,
Bu vajh ilaki, temurdin bo‘lur hisor manga.

Ne bilsun ul kishikim, chekmamish firoq tuni
Ki, ne sifat kechadur tiyra ro‘zgor manga.


Qochib adamg‘a boray aql-u fahm-u donishdin,
Vatan borinda bu yot el aro ne bor manga.

Buyurmag‘il yana sabr, ey tabib, Tengri uchun,
Ki, ushbu sharbat emas emdi sozvor manga.

Navoiydek qadidin qilsam o‘lgali ohang,
Biyik maqom topibon yasang mazor manga.

TASHQI SIYOSAT

BARQAROR VA BARDAVOM DO‘STLIK



Bugun mamlakatimiz faol tashqi siyosat tufayli barcha davlatlar bilan o‘zaro manfaatli va do‘stona aloqalarni yo‘lga qo‘yganiga guvohmiz. Bu jarayonda O‘zbekiston va Pokiston munosabatlari, ayniqsa, iqtisodiy yo‘nalishda yangi sur’at bilan rivojlanayotganini ko‘rishimiz mumkin. O‘zaro savdo-sotiq nuqtayi nazaridan iqtisodiyotlarimiz raqobatchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 12 barobarga oshdi, hamkorlarning o‘rta muddatli maqsadi esa bu ko‘rsatkichni 2 milliard dollarga yetkazishdir. Kelgusi ustuvor yo‘nalishlar o‘zaro savdo-sotiqni yanada rivojlantirish, axborot texnologiyalari, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohalarida hamkorlikni kuchaytirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharifning taklifiga binoan kecha davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatga yetib bordi. “Nurxon” aeroportida davlatimiz rahbarini Pokiston Prezidenti Asif Ali Zardoriy va Bosh vaziri Shahboz Sharif kutib oldilar.

Pokiston – O‘zbekistonning Janubiy Osiyodagi muhim va ishonchli hamkorlaridan biri. O‘zbekiston yetakchisining sa’y-harakati bilan so‘nggi to‘qqiz yilda Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch, do‘stlik va hurmat muhiti shakllandi.

(Davomi 2-sahifada).

YANGI NASHR

“MILLIY QADRIYATLAR ATLASI”


Kuni kecha O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan tayyorlangan “Milliy qadriyatlar atlasi” kitob-albomining taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Otabek Hasanov mazkur to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida berilgan topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida tayyorlanganini ta’kidladi.

Ushbu loyihada olim-u ziyolilar hamda yuqori malakali mutaxassislardan iborat ijodiy guruh shakllantirilib, 8 ta yo‘nalish – Yangi O‘zbekistonning milliy qadriyatlari, milliy-axloqiy qadriyatlar, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar, milliy o‘yinlar bo‘yicha keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilgani qayd etildi.

Qadriyatlarni kitob holiga keltirish ehtiyoji qanday paydo bo‘ldi?

(Davomi 8-sahifada).



ILM YO‘LI



BILIM BO‘LMASA, TARAQQIYOT BO‘LMAYDI

O‘zFA M.O‘rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti direktori Karim SULTONOV bilan suhbat

– Domla, bu yil Toshkent zilzilasiga oltmish yil to‘ldi, dunyoni titratgan Turkiyadagi yer silkinishiga ham uch yil bo‘libdi. Institut nomini o‘qiganda, mana shunday voqealar yodga tushadi. Suhbat avvalida muassasa tarixi, shakllanish bosqichlari va bugungi faoliyat yo‘nalishlari bilan gazetxonlarimizni tanishtirib o‘tsangiz.

– Institutimizning ildizi 1943-yilga, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilgan davrga borib taqaladi. O‘sha paytda u Matematika va mexanika instituti nomi bilan faoliyat boshlagan. Mexanika va matematika fanlari doimo bir-biriga tayanch bo‘lib kelgan, shu bois institut tarixida bu ikki yo‘nalish uzviy rivojlangan. So‘ngra Mexanika va Hisoblash markazi instituti tashkil qilindi.

Yaqin tarix – 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan keyin institutga hozirgi nomi berilgan.

Keyingi yillarda respublikada qurilish sohasi kengaygani sababli, institut faoliyati bino va inshootlar masalalari bilan ham uzviy bog‘landi.

Siz eslagan Toshkent zilzilasidan so‘ng hisoblash markazi alohida Kibernetika institutiga ajratildi, bizning muassasa Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti sifatida qayta tashkil etildi. Asosiy maqsad – O‘zbekistondagi bino va inshootlarning zilzilaga bardoshliligini ilmiy asosda ta’minlash edi.

2014-yilda institut ikkiga bo‘lindi: Mexa-

(Davomi 2-sahifada).

FAKT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi doirasida Islomobod shahriga kelgach, “Global sanoat va mudofaa yechimlari” kompaniyasining bosh qarorgohiga tashrif buyurib, Mudofaa kuchlari Oliy Bosh qo‘mondoni – Qurolli Kuchlarning quruqlikdagi qo‘shinlari qo‘mondoni, feldmarshal Asim Munir bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Abu-Dabi shahrida bo‘lib o‘tgan Shayx Zoid nomidagi “Insoniy birodarlik” xalqaro mukofotining taqdirlash marosimi ishtirokchilariga videomurojaat yo‘lladi.

Osiyo chempionatida pnevmatik to‘pponchadan 10 metr masofaga otish bo‘yicha hamyurtlarimiz Muhammad Kamalov va Nigina Saidqulova oltin medalga sazovor bo‘lib, bellashuvlarda 481,3 ball jamg‘ardi hamda jahon rekordini yangilashga erishdi.

JARAYON

OVJAZSOY MEHR MARKAZIDA



Tog‘lar Yaratganning inoyatidir. Qoyalarning abadiy sukuti va viqori ko‘ngilga allatovur sokinlik beradi.

– Biz tog‘larimiz bilan faxrlanamiz, – derdi tog‘lik oshnam.

Tog‘larga boqib, shoir Azim Suyunning mana bu satrlari yodga keladi:

Bu dunyoning jannati – tog‘lar
Meni chorlar bag‘riga bot-bot.
Quchog‘ida kezganim chog‘lar
Zamzamaday suyumli hayot.

Nurafshondan sakson kilometr uzoqlikdagi Ovjazsoy qishlog‘i ana shunday tog‘li hududda joylashgan. Qurama cho‘qqilari qishloqqa go‘zallik beradi. Ko‘zlar quvnaydi. Ohangaron tumanidagi bu go‘shaga Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan “Turizm qishlog‘i” maqomi berilgan. Uch yuzdan ziyod xo‘jalik va ikki mingga yaqin aholi istiqomat qiladigan bu qishloq ta’rifida so‘z ketganda, hazil aralash shunday gap yuradi: “Go‘zallik ishqibozlari ikkiga bo‘linadi: Ovjazsoyga kelganlar va kelmaganlar”. Bu yerdagi purviqor tog‘lar saharda va shomda ko‘kimtir tusga kiradi. Shu bois, “Moviy tog‘lar” deyiladi. Insonning xarakteriga o‘zi yashayotgan tabiatning nuqsi uradi – ovjazsoyliklarning qaddi cho‘qqilardek tik, g‘ururi tog‘lardek baland.

Viloyat hokimi Zoyir Mirzayev tashabbusi bilan o‘tkazilayotgan “Qishloqda bir kun” loyihasining navbatdagi manzili Ovjazsoy bo‘ldi.

(Davomi 2-sahifada).

BARQAROR VA BARDAVOM DO‘STLIK

Boshlanishi 1-sahifada.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining global iqtisodiy, transport va tranzit yo‘laklariga chuqur integratsiyasini ta’minlash maqsadida Mozori Sharifdan Karachigacha, ya’ni Hind okeani portlariga chiqadigan temir yo‘l qurilishi kabi yirik loyihalarni amalga oshirish tashabbusini ilgari surdi. Bu yo‘l ishga tushsa, aholi daromadlari va mahsulot sifati oshadi, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi, tannarx pasayadi, yangi texnologiyalar olib kelinadi. Bozor islohotlarini jadal rivojlantirish va mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun yangi bozorlarga kirib boriladi.

O‘zbekiston va Pokiston yaqin paytlargacha bir-birlarini uzoq sheriklar deb bilgan. Siyosiy aloqalar mavjud bo‘lsa-da, iqtisodiy hamkorlik ikki mamlakatning geografiyasi va salohiyatiga mos kelmasdi. Bu mantiq endi o‘zgarmoqda. O‘zbekiston uchun Pokiston nafaqat Janubiy Osiyodagi bozor, balki bugungi murakkab dunyoda bir yoki ikkita yo‘nalishga tayanish tobora qiyinlashib borayotgan bir paytda Arab dengizidagi portlarga va natijada muqobil eksport yo‘laklariga kirish nuqtasidir.

Trans-Afg‘on temir yo‘li esa O‘zbekistondan Pokiston portlariga chiqadigan yuk yo‘lini 35 kundan 3-5 kungacha qisqartirishga qodir bo‘ladi. Bu to‘g‘ridan to‘g‘ri iqtisodiy afzallikdir. Shu ma’noda, tashrif kun tartibi mamlakatimizning tashqi iqtisodiy aloqalarini diversifikatsiya qilish va cheklangan miqdordagi bozorlar va yo‘nalishlarga qaramlikni kamaytirishga sodiqligi bilan bevosita mos keladi. Asosiy e’tibor savdoni kengaytirish, investitsiyalarni jalb etish va muqobil transport yo‘laklarini rivojlantirishga qaratilgan, desak adashmagan bo‘lamiz.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilda Pokistonga amalga oshirgan tarixiy tashrifi davomida ilk bor Imtiyozli savdo bitimi imzolandi. Transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni alohida nazoratga olishga kelishib olindi. Asosiy maqsad – mahsulotlarni davlatlarimiz o‘rtasida to‘siqsiz va eng qisqa muddatlarda yetkazib berish tizimini yaratishdan iborat. Bunday e’tibor va sharoitlar o‘zaro aloqalarni faollashtirib, yaqin yillarda tovar ayirboshlash hajmini 500 million dollarga, kelgusida esa 1 milliard dollarga yetkazish uchun mustahkam zamin yaratdi. Hozirgi savdo aylanmasi 400 million dollardan ko‘proq bo‘lsa-da, bu ikki mamlakat yalpi ichki mahsulotining atigi 0,1 foizini tashkil etadi.

O‘sish uchun imkoniyatlar juda ulkan. Ammo hamkorlikning muvaffaqiyati geografik, demografik va iqtisodiy afzalliklardan maksimal darajada foydalanish imkonini beradigan samarali infratuzilmaviy aloqalar va bozorlar integratsiyasiga bog‘liq.

So‘nggi ikki yil ichida o‘zaro hamkorlik aloqalarimiz sezilarli darajada kuchayganini ko‘rish mumkin. Xususan, o‘tgan yili ikki tomonlama savdo hajmi taxminan 10 foizga oshdi, import taxminan 12 foizga, eksport esa taxminan 8 foizga oshgan. Chuqur sanoat hamkorligi va yangi sektoral hamkorlik orqali ikki tomonlama savdoda 2 milliard dollarlik ulkan maqsad belgilandi.

O‘zbekiston tomoni imtiyozli savdo doirasida konstruktiv muzokaralarni, jumladan, mahsulotlarni qamrab olish ro‘yxatini 34 tadan 92 tagacha kengaytirishga erishilganini yuqori baholaydi. Investitsiya va sanoat hamkorligi alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, hozirda yurtimizda 228 ta Pokiston kompaniyasi faoliyat yuritmoqda va faqat o‘tgan yilning o‘zida 80 ta yangi kompaniya ro‘yxatdan o‘tdi. Ikkala tomon ham oziq-ovqat xavfsizligi, tog‘-kon sanoati, to‘qimachilik, charm va farmatsevtika kabi ustuvor sohalardagi hamkorlikni kengaytirish, qo‘shimcha qiymat ishlab chiqarish va ixtisoslashtirilgan sanoat hamkorligini kengaytirishdan manfaatdor. O‘zbek kompaniyalari Pokistonda ham investitsiyalar va loyihalarni, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligi va go‘sht ishlab chiqarish, guruch yetishtirish imkoniyatlari va tog‘-kon sanoati sohalarini o‘rganishga qiziqish bildirmoqda.

Albatta, o‘zaro loyihalarni amalga oshirish, savdoni kengaytirish, turizmni rivojlantirish uchun viza tartibini yanada soddalashtirish, to‘g‘ridan to‘g‘ri havo aloqalarini ko‘paytirish alohida o‘rin tutadi.

Islomobod va Lahordan aviareyslar qayta boshlangani, haftasiga bir nechta chastotalarga kengaytirilgani, Karachidan qo‘shimcha xizmatlar rejalashtirilgani, ikki mamlakat o‘rtasida haftasiga oltita reysga erishish rejalashtirilgani tijorat sayohatlari, turizm va savdo aloqalarini kuchaytirishi kutilmoqda. Hali foydalanilmagan katta savdo salohiyati, qo‘shma loyihalar va logistika tarmoqlari orqali integratsiya mintaqaning iqtisodiy landshaftini o‘zgartirishga qodir.

Strategik sheriklikni rivojlantirish sanoat kooperatsiyasi, texnologiyalar, ta’lim, qo‘shma ishlab chiqarish zanjirlari va barqaror rivojlanish bo‘yicha kelishilgan yondashuvlarga asoslangan ko‘p qirrali hamkorlik modeliga o‘tishni talab qiladi. Hamkorlikning an’anaviy sohalaridan tashqari, yangi yo‘nalishlarni, birinchi navbatda, axborot texnologiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin. 240 million aholiga ega Pokiston xuddi O‘zbekiston kabi tez o‘sib borayotgan mamlakat, uning katta qismini yoshlar tashkil etadi. Shu bois, O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasida ushbu sohadagi hamkorlikni kengaytirish uchun ulkan istiqbollar mavjud.

O‘zbekiston va Pokiston Markaziy va Janubiy Osiyoning yagona geoiqtisodiy makonida joylashgan bo‘lib, sezilarli iqtisodiy, tranzit, resurs va inson salohiyatiga ega. Qariyb 300 millionlik umumiy bozor – bu nafaqat iste’molchilar, balki inson kapitali hamdir. Bog‘liqlik mintaqadagi eng yirik mehnat va intellektual klasterni yaratadi.

Pokiston O‘zbekistondan meva-sabzavot mahsulotlarini import qiluvchi yirik davlatlar o‘ntaligidan joy olgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini yanada kengaytirish maqsadida O‘zbekistonda Pokiston ishtirokida 20 dan ortiq savdo kompaniyalari va agrofirmalar tashkil qilindi. Hozir ular O‘zbekiston meva-sabzavotlarini Janubiy Osiyo mamlakatlariga yetkazish, shuningdek, Pokistonning Karachi porti orqali Fors ko‘rfaziga olib chiqish bilan shug‘ullanmoqda. Bu mamlakatning iste’mol bozori O‘zbekistonda yetishtirilgan dukkakli mahsulotlarni oliy sifat belgisi, deb qabul qiladi va zaminimizda pishib-yetilgan ne’matlar Eron, Kanada, Myanma va Avstraliyadan keltiriladigan shunday tovarlar bilan to‘liq raqobatlashmoqda.

O‘zbekiston kompaniyalari Pokistonning energetika, logistika va qishloq xo‘jaligi sohalaridagi loyihalarida ishtirok etish imkoniyatlarini o‘rganmoqda. O‘z navbatida, Pokiston tomoni Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni yaxshilash maqsadida, mintaqa bozorlariga yiliga bir necha milliard dollarlik tayyor mahsulot – dori-darmon, kiyim-kechak hamda guruch va shakar eksport qilish imkoniyatiga ega.

Yaqin kelajakda ikki davlat o‘rtasida qo‘shma investitsiya loyihalarini ishga tushirish, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berishni kengaytirish, sinov logistika yo‘nalishlarini ishlab chiqish va biznes aloqalarini faollashtirish kutilmoqda. Shuningdek, gumanitar va ta’lim almashinuvlari, ommaviy axborot vositalari va ekspert hamjamiyatlari o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish nazarda tutilyapti. Bularning barchasi o‘zaro do‘stligimiz va hamkorligimizning barqaror va bardavom bo‘lishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Jamoliddin BADALOV



OVJAZSOY MEHR MARKAZIDA

Boshlanishi 1-sahifada.

– Ajib zamonlarni ko‘rdik, – deydi duoga qo‘l ochgan otaxon. – Mabodo qishda mushkul chiqsa, qor kechib tuman yo viloyat markaziga borardik. Mutasaddilarni topsak-ku, xo‘p-xo‘p, topolmasak... Sarsonlikni aytmaysizmi? Bolam, qarang shunday kunlar ham bor ekan. Prezident vakili bo‘lgan viloyat hokimining shaxsan o‘zi, nima xizmati deb, kelib tursa-ya!

Ha, Yangi O‘zbekistonda inson qadri aziz. Mamlakatimiz rahbari tomonidan boshlangan islohotlar barcha hududlarda izchil davom etayotgani, odamlar buni his qilayotgani ko‘ngillarni quvontiradi. Avvallari eshitardik, “falon rahbar bilan uchrashishga bir hafta navbat kutdim”, “falonchi rahbar qabul qilmadi”, “Falonchi buncha so‘radi”... U zamonlar o‘tdi. Omon-omon davrlarga keldik. Kichik rahbardan tortib kattasigacha xalq xizmatida. Toshkent viloyatida amalga oshirilayotgan ishlarni ko‘rib, ko‘zlar quvonadi. Rahbarlar fuqarolarni rozi qilish harakatida. Ovjazsoyda ham shunga guvoh bo‘ldik. Viloyat rahbari tashrifi “Payg‘ambar ota” ziyoratgohidan boshlandi. Bu muqaddas joy – ziyoratchilarning sevimli maskani. Kelganlar qalbi orom, sokinlik topadi.

Sotivoldi Ahmedov xonadonida viloyat hokimi va qishloq faollari, mehnat faxriylari uchrashuvi bo‘ldi. Dasturxon atrofidagi gurunglarda samimiyat ufurib turardi. Hokim dildan suhbatlashdi. Nima yordam kerak bo‘lsa, barchasini bajarishga tayyorligini aytdi. 46-maktab filiali hududida chodir sharoitida Zoyir Mirzayev sayyor qabul o‘tkazdi. 46-maktabda yopiq sport zali qurib beriladigan bo‘ldi. 2026-yilda qishloqni rivojlantirish dasturi, rejasi ishlab chiqilishi aytildi. Aholi muammolari tinglandi, joyida hal etildi. “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi ham o‘zgacha ruhda o‘tdi.

– Endi chang ko‘chada emas, zamonaviy maydonda to‘p tepamiz, – deb shodon boqishardi yoshlar bir-biriga.

– Hali Ovjazsoydan ham Abduqodirdek yigitlar chiqadi, – gap qotardi sun’iy qoplamali stadion qurib berish masalasi ijobiy hal bo‘lganidan quvongan bir ishqiboz.

Viloyat rahbari va boshqarma boshliqlari yordamga muhtoj oilalar holidan xabar oldi. Shu kuni qishloq bayram tusiga kirdi. Garchi atrof oppoq qor bo‘lsa-da, bahoriy, Navro‘ziy kayfiyat hukm surardi. Xuddi bahor erta kelgandek. Bir yoqda yoshlar o‘rtasida sport musobaqalari o‘tkazilmoqda. Boshqa tomonda hunarmandlar mehnatlarini ko‘z-ko‘z qilsa, yana bir yoqda folklor jamoalarining chiqishlari... Bu quvonch biz, mehmonlarga-da yuqdi.

Qishloq tuni ham tarovatli. Mashhur san’atkorlar tashrif buyurdi. Kuy-qo‘shiq sadolari kech tunga dovur davom qildi. Ko‘ngildan niyat kechdi: alyoring bardavom bo‘lsin, Ovjazsoy!

Zikrilla MUHAMMAD

BILIM BO‘LMASA, TARAQQIYOT BO‘LMAYDI



Boshlanishi 1-sahifada.

nika yo‘nalishi Toshkent davlat texnika universitetiga qo‘shildi, seysmik mustahkamlik instituti esa Fanlar akademiyasi tarkibida qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi qaroriga asosan, O‘zFA Inshootlar seysmik mustahkamligi instituti va TDTU qoshidagi Tarmoq mashinashunosligi muammolari ilmiy-tadqiqot markazi bazasida Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti qayta tashkil qilindi.

Mexanika fani butun texnika va qurilishning asosi hisoblanadi. Eng qadimiy ixtiro – g‘ildirak ham mexanika qonunlariga tayangan. Institutimiz ana shu fundamental fan negizida uch asosiy yo‘nalishda ishlaydi: bino va inshootlarning seysmik mustahkamligi, materiallarning mexanik xossalarini o‘rganish hamda bino-inshootlarning seysmik xavfsizligini ta’minlash; konstruksiya va mexanizmlarning mustahkamligi, dinamikasi va unumdorligi; suyuqlik va gazlar mexanikasi, gidrotizimlar.

To‘g‘onlar, elektr stansiyalar, turar-joy va sanoat binolarining zilzilaga chidamliligini hisoblash va mustahkamlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarimiz amaliyot bilan chambarchas bog‘langan. 80 yildan ortiq tarixga ega institutimizda ko‘plab zabardast olimlar yetishib chiqqan, yirik ilmiy maktablar shakllangan va bu an’ana davom etmoqda.

– Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar qaysi asosiy yo‘nalishlarda olib borilmoqda?

– Hozir institutimizda uchta asosiy yo‘nalish mavjud.

Birinchisi – bino va inshootlarning mustahkamligi hamda seysmik xavfsizligi yo‘nalishida materiallarning chidami, konstruksiyalarning zilzilaga bardoshi va tayyor binolarni seysmik himoya qilish masalalari o‘rganiladi. Avvalo, g‘isht, beton, armatura kabi qurilish materiallarining uzoq va ishonchli xizmat qilishi tadqiq etiladi. Buning uchun institutda maxsus laboratoriya faoliyat yuritadi.

Shuningdek, qurilgan konstruksiyaning mustahkamligi – devor, ustun va plitalarning o‘zaro bog‘lanishi, o‘lchamlari nazariy va eksperimental usulda tekshiriladi. Seysmik himoya qurilmalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Poydevor bilan bino orasiga o‘rnatiladigan seysmoizolyatsiya moslamalari hamda baland binolar uchun dempferlar zilzila ta’sirini kamaytiradi. Institutimizda bunday qurilmalarning mahalliy namunalarini yaratish bo‘yicha izlanishlar olib borilib, tajribaviy sinovlar o‘tkazilmoqda. So‘nggi yillarda davlat ko‘magi bilan zamonaviy uskunalar, jumladan, AQSH-dan seysmik platforma qurilmalari olib kelindi. Bu konstruksiyalarni real sharoitga yaqin holatda sinash imkonini bermoqda.

Ikkinchi yo‘nalish – mashinasozlik mexanikasi. Bu yerda qishloq xo‘jaligi va to‘qimachilik sanoati mashinalarining mustahkamligi, samaradorligini oshirish, ularning mexanizmlari va gidravlik tizimlarini takomillashtirish tadqiq etiladi. Paxta terish texnikalarini mahalliy sharoitga moslashtirish hamda to‘qimachilik dastgohlarida ipning pishiqligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy yechimlar ishlab chiqilmoqda.

Uchinchi yo‘nalish – suyuqlik va gaz mexanikasi. Suv resurslarini tejash, truboprovodlarda optimal rejimlarni tanlash, gaz yetkazib berishdagi yo‘qotishlarni kamaytirish masalalari o‘rganiladi. Shuningdek, sanoat korxonalarida havoni changdan tozalovchi qurilmalar yaratilib, amaliyotga joriy etilgan.

Uch yo‘nalishni birlashtirib turadigan umumiy maqsad – mexanika fanining amaliy natijalaridan respublika iqtisodiyoti va aholi xavfsizligi yo‘lida foydalanishdir.

– Institutning binolar loyihalari ekspertizasi bo‘yicha ham alohida vakolati bor ekan. Bu jarayon qanday tashkil etilgan?

– Prezident qarori bilan 12 qavatdan baland, ya’ni to‘rtinchi toifa binolar loyihasi Qurilish vazirligi ekspertizasiga topshirilishidan avval institutimiz ilmiy xulosasidan o‘tishi belgilandi. Bu juda mas’uliyatli vazifa.

Biz avval qurilish maydonining geologik sharoitini asosli to‘g‘ri tanlanganligini o‘rganamiz: tuproq qatlamlari, poydevor o‘rni kabi masalalar tekshiriladi. Keyin loyiha hisob-kitoblari, mustahkamlik talablari va qurilish me’yorlariga mosligi tahlil qilinadi. Bitta loyihaga uch oygacha vaqt beriladi. Institut va tashqi tashkilotlardan jalb etilgan 25-30 nafar mutaxassisdan iborat komissiya har bir hujjatni batafsil ko‘rib chiqadi. Loyihada kamchiliklar bo‘lsa, loyihachilarga yetkaziladi, ular tuzatilib, qayta kiritiladi. Shu yo‘l bilan bino xavfsizligi maksimal darajada ta’minlanadi. So‘nggi uch yilda institutimiz olimlari tomonidan 700 dan ortiq loyiha ko‘rib chiqildi. Bu ishlarning barchasi aholining hayot xavfsizligi uchun xizmat qiladi.

– Bunday ko‘lamdagi ishlarni o‘z vaqtida bajarish qiyinchilik tug‘dirmaydimi, institutda qancha mutaxassis ishlaydi?

– Men bu dargohda ellik besh yildan buyon ishlayman, tarixini yaxshi bilaman. Avval institutda 450 nafargacha xodim ishlagan. Hozir institutimizda 154 nafar xodim doimiy faoliyat yuritadi, tashqaridan jalb etiladigan mutaxassislar bilan 200 kishiga yaqinlashadi. Asosiy ilmiy maktablar saqlanib qolgan va eng zarur vazifalarni bajarib kelyapmiz. Kadr va imkoniyat masalasida cheklovlar bor, lekin mavjud salohiyat bilan eng dolzarb ishlarni sifatli ado etishga harakat qilamiz. Quvonarlisi, jamoamizning 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Ular zamonaviy bilimga ega, yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtiradi.

Albatta, yuklatilgan vazifalar juda mas’uliyatli. Bino va inshootlar xavfsizligi, seysmik mustahkamlik bo‘yicha ilmiy xulosalar berish, yangi qurilmalarni yaratish – bularning barchasi katta mehnat talab qiladi. Institutda nazariy, eksperimental laboratoriyalar, zamonaviy sinov uskunalari mavjudligi ishlarni sifatli bajarishga yordam bermoqda.

Jamoamiz ahil va ijro intizomi yuqori. Masalan, o‘tgan yili turli davlat tashkilotlaridan kelgan 121 ta topshiriqning barchasi belgilangan muddatda bajarildi. Bu natija institut salohiyati va xodimlarning mas’uliyatini ko‘rsatadi. Biz uchun eng muhim mezon – bajarilgan ishning odamlar xavfsizligiga xizmat qilishidir.

– Institut erishgan yutuqlar haqida faxr bilan gapirdingiz. Sizni qoniqtirmaydigan, hal etilishi zarur muammolar ham bormi?

– Eng katta masalalardan biri – fan bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlik. Institutimizda har yili o‘nlab ixtiro qilinadi. Masalan, o‘tgan yilning o‘zida 40 ga yaqin yangi ishlanmaga guvohnoma olindi. Ammo ularni amaliy ishlab chiqarishga joriy etish jarayoni sust.

Iqtisodiyotda oltin qoida bor: avval talab bo‘lishi kerak, keyin taklif paydo bo‘ladi. Ishlab chiqarishda ham ilmiy ishlanmalar uchun real talab shakllanishi zarur. Mamlakatimizda bu yo‘nalishda muhim qadamlar tashlanmoqda. Xususan, maxsus qaror bilan Fanlar akademiyasi va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, maxsus kengashlar tashkil etish belgilandi. Bu jarayon katta mablag‘ talab qiladi. Masalan, yangi texnikani yaratish uchun uch bo‘g‘in zarur: ilmiy tadqiqot, loyihalash instituti va ishlab chiqarish zavodi. Ilm bor, lekin loyihalash va sanoat quvvati yetarli emas. Shu zanjir to‘liq ishlasagina, ixtirolar hayotga tatbiq etiladi. Eng asosiy masala – mexanika fani tajribasiz rivojlana olmaydi. Nazariy hisob-kitoblar muhim, lekin ularni, albatta, tajriba tasdiqlashi kerak. Tajriba esa juda murakkab va qimmat jarayon.

Davlatimiz rahbariga e’tibor uchun alohida minnatdorlik bildirmoqchiman. To‘rtinchi toifa binolar loyihalarini institutimizda ilmiy ekspertizadan o‘tkazish vazifasi yuklatilgach, buning uchun mablag‘ ajratish mexanizmi ham belgilandi. Har bir loyiha qiymatidan ma’lum foiz institutga yo‘naltirila boshladi. Natijada tajriba bazamizni bosqichma-bosqich kuchaytiryapmiz.

Lekin, baribir, eng katta kamchiligimiz – sinov laboratoriyalarining imkoniyati hali to‘liq yetarli emas. 2024-yilda biz yangi binoga ko‘chib keldik. Unga qadar uch yil ta’mirlash ishlari olib borildi. So‘nggi ikki yilda davlat ko‘magida ikkita yirik laboratoriya qurilib topshirildi. Bu katta qadam, ammo barcha yo‘nalishlarda to‘laqonli tajriba o‘tkazish uchun bazani yanada kengaytirish zarur.

– Bugungi yoshlarning ilmga qiziqishini qanday baholaysiz?

– Bizga kelayotgan yoshlarning aksariyati ilmni chin dildan tanlayapti. Kamdan kam hollarda kimdir yo‘ldan qaytadi. Ko‘pchiligi doktoranturani tugatib, dissertatsiya himoya qiladi, doktorlik darajasiga erishib, institutda faoliyatini davom ettiradi.

Hozir yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Ular nafaqat davlat byudjeti hisobidan, turli shartnomalar, grantlar orqali ham mablag‘ jalb qilishi, o‘z mehnati bilan qo‘shimcha daromad topishi mumkin. Demak, bilimli mutaxassis o‘z salohiyati bilan ikki barobar ko‘proq daromad olish imkoniga ega.

Kadr masalasi avval jiddiy muammo edi. Olimlarning maoshi oshirilgach, ilmga qiziqish kuchaydi, yoshlar ko‘proq kela boshladi. Shunga qaramay, hali qilinadigan ishlar bor. Sharoit va imkoniyatlar kengaygani sari institutimiz ham kuchli kadrlar bilan to‘lib borishiga ishonaman.

– Demak, iqtisodiy mustaqillik ham ilm-fan bilan chambarchas bog‘liq, shundaymi?

– Albatta. Davlat mustahkam bo‘lishi uchun ko‘p mahsulot ishlab chiqarishi, hatto eksport qilishi kerak. Iqtisod bo‘lmasa, eng katta tizim ham barbod bo‘ladi. Buni tarix ko‘rsatgan.

Bugun olimlarning mavqeyi oshdi, ilmga munosabat o‘zgardi. Institutimiz jamoasi ham bu mas’uliyatni chuqur his qiladi. Fanda natija faqat ishni chin dildan sevib bajarganda bo‘ladi. Shu ruh bilan ishlayotgan olimlarimiz mamlakat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishga intilmoqda.

– Sermazmun suhbat uchun minnatdorlik bildirib qolamiz. Rahmat.

Vasila HABIBULLAYEVA
suhbatlashdi.


TADQIQ

“ZANJIRBAND SHER”NI KIM CHIZGAN?

Alisher Navoiy “Zanjirband sher” rasmida o‘zini tasvirlagan, degan qarash hammaga yaxshi tanish. Bunda Oybekning 1942-yilda yaratilgan “Navoiy” romani hamda Izzat Sulton va Uyg‘unning 1941-yili yozilgan, 1948-yili sahnaga qo‘yilgan “Alisher Navoiy” dramasida “Zanjirband sher” nomli suratning tilga olinishi katta rol o‘ynagan ko‘rinadi. Bu ikki asarda, garchi ular badiiy ijod namunalari bo‘lsa-da, zanjirband sher suratida Navoiy o‘zini aks ettirgani tilga olinadi.

Keling, bu suratga XX asrda qanday e’tibor qaratilganiga to‘xtalib, uning Alisher Navoiyga qanchalik aloqasi borligini qo‘limizdagi mavjud manbalar asosida ko‘rib chiqaylik.

Natan Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida (1963, 1965-yillar va 1976-yildagi qayta nashrida) zanjirband sher tasviri berilgan.



Zanjirband sher (Navoiy ishlagan surat).

Surat ostiga “Zanjirband sher (Navoiy ishlagan surat)” deb yozib qo‘yilgan. O‘zbekistondagi taxminan uch avlod ushbu suratni ko‘rib, uni haqiqatan ham Alisher Navoiy chizgan va rasmda o‘zini aks ettirgan, degan fikr bilan o‘sgan. Bu fikrga shubha bilan qaramay qo‘ygan.

“Zanjirband sher” tasviri haqida fikr bildirganlar orasida hind san’ati faylasufi, rassom, ushbu surat saqlangan AQSHning Boston muzeyida kurator bo‘lgan Ananda Kumarasvami, mashhur olim, miniatyura tarixiga oid tadqiqotlari bilan ilmda sezilarli iz qoldirgan Armenagbey Sakisyan, o‘zimizdan Olim Sharafiddinov, Mamarasul Boboyev, Oybek, Izzat Sulton, Uyg‘un, Hodi Zaripov, Natan Mallayev, Suyima G‘aniyeva singari olim va adiblar nomlarini qayd etish lozim.

G‘ARBDAGI KITOBLAR NIMA DEYDI?

1929-yili Yevropada ikkita kitob nashr etildi. Bu kitoblarda “Zanjirband sher”ni Alisher Navoiy chizgan, deya Ananda Kumarasvami (1877–1947) va Armenagbey Sakisyan (1872–1944) birinchilardan bo‘lib fikr bildirgan. Ular Boston shahridagi tasviriy san’at muzeyida saqlanuvchi Viktor Golubev (1878–1945) kolleksiyasidagi “Zanjirband sher” miniatyurasiga asoslangan. San’atshunos, kolleksioner, arxeolog Viktor Golubev san’at asarlari bo‘yicha juda katta va ahamiyatli kolleksiya to‘plagan. U ichida sharq miniatyuralari mavjud bo‘lgan kolleksiyasini 1914-yili Boston muzeyiga sotgan. “Zanjirband sher” ham shu osori-atiqalar qatorida bo‘lgan.

Sakisyan kitobida “Zanjirband sher” rasmi 1500-yilda chizilgan, degan yozuvni keltirgan va uni Navoiy chizgan, deb ta’kidlagan. Kumarasvami ham mazkur fikrga qo‘shiladi. Lekin ayni vaqtda surat ostida asar yaralishining taxminiy sanasi sifatida 1550–1575-yillar ko‘rsatilgan. Ikki olim ham o‘z fikriga asos sifatida sher rasmi ostidagi “Amali amir Alisher” ilovasiga tayangan. Tasvir naqshli romcha ichida berilgan. Chap tomonda oq rangdagi harflar bilan yuqorida joylashgan naqsh ichiga “amali amir” va uning pastidagi naqsh ichiga “Alisher” so‘zlari yozilgan.

NAVOIY ASARLARIDA MA’LUMOT BORMI?

Shu o‘rinda, Alisher Navoiy asarlarida “Zanjirband sher” haqida yoki bu tasvirda o‘zi aks etganiga oid biror ma’lumot bormi, degan savol tug‘iladi. Navoiy asarlarida o‘zini zanjirband sherga o‘xshatishi haqida biror aniq gap yo‘q. Suyima G‘aniyevaning ta’kidlashicha, “Zanjirband sher” iborasi Navoiyning “Tuhfat ul-afkor” qasidasida uchraydi:

Qaydi zinat musqiti farr-u
shuko‘hi xusravist,
Sheri zanjiri zi sheri
besha kamsavlattar ast.

Tarjimasi: *Zeb-u ziynatga hirs qo‘yish podshohlik sha’n-shavkati va shukuhini barbod etishdir, zanjirband sherning savlati o‘rmon sheri savlatidan kamroqdir.*

Bu ibora Navoiyning “Holoti Pahlavon Muhammad” asarida ham mavjud. Mazkur satrlarning tarjimasi quyidagicha: “Keksalik meni yoshlik pallasidan itqitib tashladi; endi men ul zanjirband sher emasman. Keksalik g‘ami meni butunlay olib ketdi”. Ko‘rinadiki, Pahlavon Muhammad o‘zini zanjirband sher sifatida talqin qilmoqda.

Navoiy she’riyatida zanjir obrazi ko‘p uchraydi. Bu aksar holda tasavvuf bilan bog‘lanib keladi. Lekin Alisher Navoiy o‘zini zanjirband sher sifatida taqdim qilganiga oid ishora mavjud emas. Shunday ekan, zanjirband sher rasmida Navoiyning ifodalanishiga oid talqinlar qayerdan vujudga keldi?

O‘ZBEK ADABIYOTIDA ZANJIRBAND SHER TALQINI

1939-yili Olim Sharafiddinov Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida “Alisher Navoiy: zamoni, hayoti, ijodiyoti va o‘limi” nomli kitobini nashr etgan. Kitobning 57-betida “Zanjirband sher” rasmi keltirilgan. Natan Mallayev darsligida keltirilgan va biz yuqorida qayd etgan “Zanjirband sher” tasviri ham shu kitobdan olingan ko‘rinadi.



Kamoliddin Behzodga nisbat berilgan “Zanjirband sher” surati.

Olim Sharafiddinov o‘z kitobida A.Sakisyan gaplarini takrorlagan, surat 1500-yilda chizilgan, deya uni Navoiyning umri oxirida Husayn Boyqaro hukmronligi davridagi ijtimoiy tanazzul mahsuliga nisbatan bo‘lgan tanqidiy munosabatiga ko‘ra chizgan, deb baholagan. Olim Sharafiddinov kitobidagi “Zanjirband sher” surati ostiga “Alisher Navoiyning o‘zi haqida o‘zi ishlagan rasm. Hirot, 1500-yil” deb yozilgan. Mantiqan, bu surat kitob muallifi tomonidan Navoiy yashagan davrdagi murakkab hayot mahsuli sifatida taqdim etilgan ko‘rinadi.

Natan Mallayev “Navoiy” romani va “Alisher Navoiy” dramasida badiiy tasvirlanganidek, Navoiyning Astrobodda bo‘lishini shoirning ruhiy tushkunlik davri sifatida baholagan. “Navoiyning dushmanlari uni poytaxtdan uzoqlashtirishni zo‘r berib talab qilmoqda edilar. Nihoyat, Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni Astrobodga hokim qilib tayinladi”. Natan Mallayev darsligida ayni o‘rinda “Zanjirband sher” surati keltiriladi. Ochiq aytilmasa-da, bu o‘rinda “Zanjirband sher” tasviri Navoiyning Astroboddagi holati va kayfiyati bilan bog‘langanday bo‘ladi.

Zanjirband sher Alisher Navoiy surati ekani O‘zbekiston SSRda 1930-yillardan boshlab e’tirof etila boshlangan. Xususan, 1939-yili shoir Mamarasul Boboyev yozgan “Zanjirlangan sher” nomli asar ma’lum. Mazkur she’rda biz bilgan va keng tarqalgan “zanjirband sher” nomi “zanjirlangan sher” degan ko‘rinishda keltirilgan. She’r mazmuniga kelsak, u sobiq ittifoq mafkurasiga xos sinfiy kurash nuqtayi nazaridan yozilgan.

Izzat Sulton va Uyg‘un tomonidan yozilgan “Alisher Navoiy” dramasida “Zanjirband sher yengaman der” degan satr ham “Zanjirband sher” rasmi talqiniga ishoradan kelib chiqqan. 1939-yildagi ushbu matn shunchaki tarjimai hol emas, bu sovetlar davrida Navoiyni “demokrat” va xalq himoyachisi sifatida ko‘rsatishga, uning adolatsizlikka qarshi kurashini ko‘rsatishga urinishdir. Dramadagi zanjirband sher aynan Alisher Navoiyning Astrobodga yuborilishi va uning Hirotga qaytib ketishiga imkon yo‘qligi bilan bog‘langan voqealar o‘rnida tilga olinadi. Natan Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida ham, Oybekning “Navoiy” romanida ham surat Navoiyning Astrobodda bo‘lgan vaqti, Hirotga qaytish orzusida yashayotgan voqealar tasvirlangan qismda keltiriladi. Aftidan, “Zanjirband sher” surati Navoiyning Astrobodda majburan yashab turgan paytidagi kayfiyatiga mos kelgani uchun uni shoirning shu hayotiga oid, deb ko‘rsatish ilmiy va badiiy asarlarda urf bo‘lgan.

Mamarasul Boboyevning “Zanjirlangan sher” nomli she’ri 1939, “Alisher Navoiy” dramasi 1941, “Navoiy” romani esa 1942-yili yozilganini hisobga olsak, demak, “Zanjirband sher” surati o‘sha davrda sovet siyosatiga xos sinfiy kurash masalasi bilan bog‘liq holda talqin etila boshlangan. Zamonaviy nashrlardan Abdulla Oripovning quyidagi mashhur satrlarini esga olish mumkin:

Besh asrkim, nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir sher,
Temur tig‘i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.

Shuningdek, bu o‘rinda Ibrohim Haqqulov Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlangan esselar to‘plamini “Zanjirband sher qoshida” deb nomlagani, Abdulla Sherning “Navoiy sog‘inchi” turkumidagi “Zanjirband sher” nomli she’rini ta’kidlash lozim. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida bu kabi misollarni yana keltirish mumkin.

Shu o‘rinda o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi surat bilan bog‘liq rivoyatni ham yodga olish joiz.

MIR ALISHER CHIZGAN SURAT

“Kunlardan bir kuni Mir Alisher o‘zining ijodxonasida allaqanday bir suratni chizar ekan, nogohon Sulton Husayn uning hujrasiga kirib kelibdi. Mir Alisher surat chizishga qattiq berilib ketganidan podshoga qaramabdi ham. Bundan Husayn qattiq ranjib:

– Mir Alisher, sizning musavvirlik hunaringizdan bexabar ekanmiz-da! Mendan ko‘ra surat azizroq ekanmi, deyman, bundoq qayrilib ham qaramadingiz-a?! – debdi. Mir Alisher shunday javob beribdi:

– Agar bu suratda kim tasvirlanganini bilganingizda edi, fikringizdan qaytgan bo‘lardingiz!

Podsho Husayn yaqinroq borib qarasa, o‘zining surati ekan, shunda u do‘stiga noo‘rin jahl qilganiga pushaymon bo‘lib, binobarin, yanada mehri ortibdi. Mir Alisher esa podshoga qarab:

– Do‘stim, endi buni ham tomosha qiling, – debdi.

Mir Alisher zanjirlangan sherning suratini chizib, Husaynga uzatibdi. U suratni obdon tomosha qilib:

– Nimaga sherni zanjirlab qo‘yibsiz? – deb so‘rabdi.

– Sizning oldingizdagi barcha olimlar-u shoirlar, donolar-u yaxshilar ana shu zanjirband sherga o‘xshaydilar. Siz ularning barini bezanjir band etib qo‘ygansiz. Ammo sher xoh zanjirband bo‘lsin, xoh beband ekan, mag‘lubiyatni xayoliga ham keltirmaydi, maqsadi yengib chiqmoq, – debdi Mir Alisher. Husayn Mirzo Mir Alisherning so‘ziga javob topib berolmay, hujradan boshini egib chiqib ketibdi”.

Aslida, bu rivoyatni maqolamiz boshida keltirish o‘rinli edi. Sababi, xalq og‘zaki ijodi badiiy adabiyotdan avvalroq vujudga kelgan va tarqalgan. Ammo ayni rivoyat xalq og‘zaki ijodi sifatida taqdim etilsa-da, mohiyatan, sovet siyosatiga mos ohangga egadek.

Zanjirband sher suratining sovet mafkurasiga mos siyosiylashgan talqinlari mavjud bo‘lib turgan 1980-yillardayoq, uning muallifi Alisher Navoiy ekaniga tanqidiy qarash navoiyshunos olima Suyima G‘aniyeva tadqiqot va nashrlarida bo‘y ko‘rsata boshlagan. Masalan, olima yozishicha, 1956-yildan buyon har yili Navoiy tug‘ilgan kuni – 9-fevralda o‘tkazib kelinayotgan ilmiy-an’anaviy konferensiyalarning birida taniqli olim Hodi Zarif shoir tomonidan chizilgan, deb yuritiladigan “Zanjirband sher” rasmi ostidagi “Amali amir Alisher” yozuvining Navoiy dastxati ekani masalasini ko‘tarib chiqqan. Lekin olima bu matnni Navoiy dastxati emas, deb hisoblagan.

SHARQDAGI AN’ANAVIY TASVIR

Zanjirband sher tasvirining musulmon sharqi tasviriy san’atidagi o‘rni qandayligi va bu tasvirning sovet davrida siyosat bilan bog‘lab talqin qilingani haqida taniqli san’atshunos olim, Sankt-Peterburg (Rossiya) davlat Ermitaji Sharq bo‘limi yetakchi ilmiy xodimi, professor Adamova Adel Tigranovnaga maktub bilan murojaat qildik va shunday javob oldik:

“Maktabni bitirgan qadrdon shahrim – Toshkentdan maktub olish men uchun juda yoqimli bo‘ldi. Zanjirband sher – O‘rta asr Eron san’atidagi eng sevimli obrazlardan biri. Sher tasvirlari (ko‘pincha yotgan holatda) XVI–XVII asrlarga oid ko‘plab albomlarda uchraydi. Ehtimol, bu motivning ommabopligi uning Kamoliddin Behzod nomi bilan bog‘liqligi bilan izohlanar (uning imzosi tushirilgan rasm mashhur H.2154 raqamli albomda joylashgan). Sizga albomlar (muraqqa) haqidagi ikkita ajoyib kitob muallifi D.Roksburgning maqolasini tavsiya qilaman: Davud J. Roxburg. Kamal al-Din Bihzad and Authorship in Persianate Painting // Muqarnas, vol.17 (2000), p.119-146. **(“Muqarnas” jurnali ochiq manbada mavjud, yuklab olish mumkin).**

Roksburg sher tasvirlangan rasmlar haqida maqolasining 131-betidagi (9–12-rasmlarga ham qarang) 50-izohda to‘xtalib o‘tgan. Roksburgning taxminicha, “Amali amir Alisher” imzosi qo‘yilgan sher rasmida so‘z o‘yini o‘z rolini o‘ynagan. Bu yerda hech qanday siyosiy ma’no yo‘q, qolaversa, Sulton Husayn davrida Navoiyning roli va qudrati haqida juda ko‘p adabiyotlar mavjud”.

Mashhur san’atshunos Devid Roksburg ham Kamoliddin Behzod ijodiga bag‘ishlangan maqolasida “Zanjirband sher” suratiga oid o‘z fikrlarini bildirgan. U surat ostidagi “Amali amir Alisher” so‘zlarini Alisher Navoiyning ismidagi “sher” va tasvirdagi sher nomi o‘rtasidagi so‘z o‘yini deb qaragan. Ya’ni, Roksburg suratni Navoiy chizgani haqida aniq fikr yozmagan.

Suratning Kamoliddin Behzodga nisbat berilgan varianti ham mavjud bo‘lib, boshqa rassomlar tomonidan ishlangan shunday rasmlar ham bor ekan.

Navoiyga nisbat berilgan “Zanjirband sher” surati keltirilgan albomda boshqa rasm ham keltirilgan.

Zanjirband sher tasviri ancha nusxalarda uchrashiga guvoh bo‘lgan holda, qo‘lyozmalar bo‘yicha yirik mutaxassis, Fransiya milliy kutubxonasining fors tilidagi qo‘lyozmalar bo‘limi boshlig‘i bo‘lib ishlagan Fransis Rishardan surat bo‘yicha quyidagicha javob oldik:

“Mening bilishimcha, zanjirband sher aks etgan bunga juda o‘xshash boshqa eskizlar ham mavjud. Bu mavzu Bahrom haqidagi qissadagi Eron imperatorlik tojining mashhur ikki zanjirband qo‘riqchi-sheriga ishora bo‘lishi mumkin. Lekin, katta ehtimol bilan, bu Sulton Husayn Boyqaroning “hayvonot bog‘i”dagi sherning tasviridir.

Albatta, Mir Alisher imzosining mavjudligi mashhur amir va homiyning o‘zi ham rassom bo‘lganini ko‘rsatadi. Biz Bostonda saqlanayotgan Behzod qalamiga mansub, bunga juda o‘xshash zanjirband sher tasvirini bilamiz. Alisher, ehtimol, Behzodning ustaxonasida u bilan birga ishlagan. Keyinchalik Behzodning shogirdi Shayxzoda (mening fikrimcha, Hirotda) Behzod imzosi qo‘yilgan eskizning nusxasini yaratgan (hozir Vashingtonda, Frir galereyasida saqlanadi). Shu tariqa “zanjirband sher” Eron miniatyurachilari repertuarining bir qismiga aylangan. Ammo men yanglishayotgan bo‘lishim ham mumkin...”

AFRIKA OZODLIGI VA “ZANJIRBAND SHER” NISHONI

1960-yil 14-dekabrda BMT “Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to‘g‘risidagi deklaratsiya”ni qabul qildi. Afrikadagi 17 ta mamlakat mustaqillikka erishdi. Dunyo bo‘yicha 1960-yil – “Afrika yili” deb e’lon qilinib, uch yildan so‘ng Afrika birdamligi tashkiloti tuzilgan. Bu mamlakatlarning kolonizatorlardan ozod bo‘lishida sobiq SSSR davlatining ta’siri katta bo‘lgan. 1947–1991-yillardagi sovuq urush davrida sobiq Ittifoq Afrikani mustamlakadan qutqarishni qo‘llab-quvvatlash orqali o‘z gumanizmini ko‘rsatmoqchi edi. 1960-yili Moskvada afrikalik davlat va siyosat arbobi Patris Lumumba nomida xalqlar do‘stligi universiteti ochilgan, rus tilida “Osiyo va Afrika xalqlari” nomli jurnal nashr etila boshlagan. Shu jarayonda sovet davri plakatlarida zanjirlarni sindirayotgan afrikaliklar ko‘p tasvirlana boshladi. Zanjir kolonial qullik ramzi sifatida ko‘rsatildi.

1968-yili Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi yurtimizda keng nishonlangan. Yubiley munosabati bilan 1968-yili Moskva shahrida ham katta yig‘ilish o‘tkazilgan va Navoiy tasviriga ega likopchalar, bir necha xil nishonlar, jumladan, “Zanjirband sher” nishoni ham tayyorlangan.



Aftondil ERKINOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

Sovet tuzumiga “Zanjirband sher” tasvirini Navoiy bilan bog‘lash zarur edi. Bunda Navoiyning “Zanjirband sher” rasmini o‘zi chizgan-chizmagani, suratdagi sher Navoiy



Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan tayyorlangan “Zanjirband sher” nishoni.

shaxsiyatini anglatish yoki anglatmasligining ahamiyati bo‘lmagan. Nega? Chunki 1968-yilgacha ham “Zanjirband sher” rasmiga sovet mafkurasiga mos siyosiy tus berish mavjud edi. Aynan Afrika ozodligi davrida bu nishonga yana e’tibor qaratildi. Bu SSSRga Navoiy davridagi feodalizm Navoiydek sherni bog‘lab turgan, biz bolsheviklar musulmon sharqiga ozodlik olib keldik, deb ko‘rsatish uchun qurol vazifasini o‘tagan. 1960-yillar sovet makonida “zanjir” ramzi siyosiy jihatdan juda ommabop davr edi.

Afrika misolida bu mustamlakachilik zanjiri hisoblansa, Navoiy uchun bu feodalizm va saroy cheklovlari zanjiri, deb talqin etilgan. “Zanjirband sher” nishonini chiqarish orqali sovet mafkurachilari quyidagi fikrni singdirishgan: “Navoiy o‘z davrining “sher”i edi, lekin mustabid tuzum (Temuriylar saroyi) uni kishanlab qo‘ygandi. Xuddi bugungi Afrika xalqlari kabi, Navoiy ham ozodlikni orzu qilgan”. Zanjir – Navoiyning erki va ijtimoiy islohotlariga yo‘l bermagan eski tuzum ramzi. Bu yerda SSSR o‘zini “Zanjirlarni parchalovchi” rolida ko‘rsatadi. Ya’ni, “Biz keldik va Navoiy orzu qilgan erkinlikni (feodalizmdan holi jamiyatni) Sharq xalqlariga berdik”, degan g‘oya ilgari surilgan.

1968-yili Navoiy yubileyining Moskvada ham yuqori darajada nishonlanishi SSSRning xalqaro obro‘si uchun kerak edi. Bu bilan Kreml dunyoga (ayniqsa, ozodlikka chiqayotgan Osiyo va Afrika davlatlariga) shunday demoqchi bo‘lgan: *“Biz nafaqat kelajakni quramiz, balki Sharqning buyuk*




siymolarini kishanlaridan (diniy va feodal tutqunliklardan) qutqarib, ularning haqiqiy qiyofasini ochamiz”.

Demak, o‘rta asr miniatyurasidagi zanjirband sher obrazi 1960-yillarning dekolonizatsiya ruhi bilan uyg‘unlashtirilgan. Navoiyning sovetcha qiyofasi yaratilgan – u “saroy shoiri” emas, balki zanjirband qilingan, lekin ruhi ozod islohotchi sifatida taqdim etilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, sovetlar davrida tayyorlangan “Zanjirband sher” nishonidagi sher qora fonda berilgan. Aslida, miniatyuradagi rasmda qorong‘ilik yo‘q.

NAVOIYGA NISBAT BERILGAN

Yuqoridagi barcha talqinlarni tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkin: Alisher Navoiy chizgan deb qaralayotgan “Zanjirband sher” tasviri haqiqatan ham uning qalamiga mansubligi masalasi hozircha bahslidir, biz faqat bu asar Navoiyga nisbat berilgan, degan qarash bilan cheklanamiz.



“...Ona tilig‘a muhabbati bor kishi ham Alisher Navoiy asarlarini o‘qub ko‘rganda tilimiz avvalda shuncha boy va mukammal ekan, nima qildikki, ul latofat, ul nafosatlarini yo‘qotib, kishi tanimaydurg‘on bir holg‘a kelturub qo‘yduk, deb ohlar tortur.”


Ashurali ZOHIRIY

BIR G‘AZAL SHARHI

“SHOHLAR DARVESHI-YU DARVESHLAR SHOHI”



Dilobar JO‘RAYEVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi



Nazm mulkining sultoni Alisher Navoiyning merosi nafaqat she’riy san’atlar gultoji, balki ko‘ngil va ruh tarbiyachisi sifatida ham hamisha yuksak maqomdadir. O‘z davrining yetuk va faol insoni bo‘lgan Navoiy yoshlargagina emas, hatto saltanat sohiblariga ham pand-u nasihatlar qilishga, ularni adolat yo‘liga boshlashga o‘zida ma’naviy huquq sezganki, bu huquq, shubhasiz, uning benazir iste’dodidan kelib chiqadi.

Bolalikdan birga o‘sgan do‘sti, keyinchalik Xuroson hukmdori bo‘lgan Sulton Husayn Boyqaro ta’rifida yozgan ko‘plab bitiklarida ham u do‘stini jahondorlik vasvasasidan ogoh etib, toj-u taxt egalari qanday bo‘lmog‘i kerakligini go‘zal misralarda ifodalab bergan.

Xususan, ulug‘ shoir “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi sakkizinchi g‘azalda shohlar va darveshlar tiynatini qiyoslab, mana shu muqoyasa vositasida do‘stini ezgulik mulki sari chorlaydi. Kishi biron ezgu ish qilmoqchi bo‘lsa, avvalo, uning ko‘ngli pok, ruhi ozod bo‘lmog‘i kerak. Bu borada esa Navoiy hukmdorlarga ibrat sifatida aynan darveshlik rutbasini misol keltiradi. Zero, qalbi-yu ruhiyatini dunyo g‘amidan qutqargan darveshning xayolida Yaratganning visolidan o‘zga tashvish bo‘lmaydi.

Har gadokim, bo‘ryoyi faqr erur kisvat anga,
Saltanat zarbaftidin hojat emas xil’at anga.

Ya’ni, faqirlik libosini egniga ilgan darveshga saltanat ahlining zarbof kiyimlari darkor emas, chunki haylu hasham aksar hollarda kishini kibrga, manmanlikka olib keladi.

Shah yurub olam ochar, darvesh olamdin qochar;
Ham o‘zung insof bergilkim, bu ne nisbat anga.

Hukmdorlik belgilaridan biri, shubhasiz, olamgirlikdir. Agar o‘z taxtida muqim o‘tirgan shoh qo‘shni yurtlarga yurish qilib turmasa, vaqt kelib dunyo ahlida uning kuch-qudratiga nisbatan shubha tug‘ilishi mumkin. Shu sababli ham, tarixda nomi qolgan hukmdorlarning ko‘pchiligi harbiy yurishlarni amalga oshirib turganlar. Navoiyning fikricha, shoh yurish qilib, yangi dunyolar ochadi, jahondan ko‘ngil uzgan darvesh esa bu yolg‘onchi dunyodan imkon qadar qochishga urinadi, xilvatga chekinadi. Chunki darvesh bu olamning bevafoligini, Haqdan o‘zga barchasi o‘tkinchi ekanini allaqachon anglab yetgan, shuhrat yulduzi endi porlab kelayotgan shoh esa hali bu maqomga yetisholgani yo‘q.

Har ne, shah maqsudidur,
darveshning mardudidur!
Ko‘r ne himmatdur munga, ne nav’ erur holat anga.

Nimaiki shohning maqsadi, orzusi bo‘lsa, darvesh uni allaqachon rad etgan. Chunki, yuqorida aytib o‘tilganidek, darvesh bu dunyoning osti-ustini anglab yetib, shu qarorga kelgan. “Bu – uning himmati, mardligi. Maqsudga, jahondorlikka intilmoq esa shohning holatidir”, deydi Navoiy.

Faqr ko‘yi tufrog‘in shah mulkiga bermas faqir,
Mulk ko‘rkim, teng emas tufrog‘ ila qiymat anga.

Faqir, ya’ni darvesh faqirlik dunyosining bir kaft tuprog‘ini shoh tasarrufidagi butun mulklarga almashtirmaydi. Chunki faqirlik dunyosida ko‘ngil osoyishtaligi bor. Bandaning birlamchi umidi ham aslida shu: Alloh diydoriga umid bog‘lab, ko‘ngil xotirjamligiga erishmoq. Agar bir siqim tuproqqa teng kelolmasa, tiriklikning bu mulki qanchalik qiymatga ega?

Shah sipah cheksa, faqir ahvolig‘a yetmas futur,
Bu vale chekkach nafas, barbod o‘lur hashmat anga.

Agar podshoh lashkar tortib kelsa, faqirning ahvoliga putur yetmaydi, chunki uning yo‘qotadigan narsasi yo‘q. Uning Haq ishqi bilan to‘lgan ozod ko‘ngli bor, xolos. Biroq, bordi-yu darveshni hafa qilsa, unga ozor yetkazsa va darvesh faryod qilsa, shohning holiga voy! Chunki u bir ko‘ngilni og‘ritdi. Ko‘ngil og‘ritish esa olamdagi eng katta gunohlardan biri. Faqir shohdan xafa bo‘lsa, shohning hashamati, dabdaba-yu as’asasi o‘z qiymatini yo‘qotadi, uning Yaratgan oldidagi darajasi ham pasayadi.

Shah emastur bir nafas osuda do‘zax vahmidin,
Ey xusho darveshkim, mardud erur jannat anga.

Qaysi dinga mansubligidan qat’i nazar, agar kishi Yaratganga sidqidildan iymon keltirgan bo‘lsa, u albatta, do‘zax azobidan qo‘rqib turadi. Bordi-yu shoh jahannam vahimasidan qo‘rqmaydigan bo‘lsa, u shoh emas, ya’ni chinakam muslim emas. Aslida, mo‘minlikning o‘zi shohlikdir, zero, haqiqiy musulmon tangridan o‘zgaga qul bo‘lmaydi. Ushbu baytning ikkinchi misrasida esa Navoiy hatto jannatni ham rad etgan darveshni ulug‘laydi. O‘zgalarning rohati uchun mangu farog‘atdan kecha olish uchun nechog‘lik mardlik kerak?

Shahg‘a sidq ahli damidin mash’ali davlat yorur,
Mehrdekkim, subh anfosi ochar tal’at anga.

Shohning davlati, omadi va obro‘si chin dildan ixlos qiluvchi insonlar nafasi, duosi va rost so‘zi bilan yorug‘ bo‘ladi. Bu holatni Navoiy tong payti quyoshning chiqishiga o‘xshatadi: sahar nafasi quyoshni namoyon etganidek, sidq ahli – rostgo‘ylarning so‘zi, nafasi podshohning davlatini porlatadi. Shohni ulug‘ qiladigan narsa zo‘ravonlik yoki boylik emas, balki uning atrofidagi sodiqlarning duosidir. Hamdu sano, maddohlik emas, rost so‘z, ya’ni haqiqat saltanatning umrzoqlik shartlaridan biridir, deydi shoir.

Shohg‘a shahlig‘ musallamdur, agar bo‘lg‘ay mudom,
Shohlig‘ tarkin qilib, darvesh o‘lur niyyat anga.

Shoh qachon chinakam shoh bo‘ladi? Qachonki u dabdabani, hashamatni tark etib, xuddi darveshday yashasa, muqarrar shoh sanaladi. Shohlikni tark etib, darveshlikni doimo niyat qilib yashasa, el uni ulug‘laydi. To‘g‘ri, zohiran saltanatni tark etmasligi mumkin, ammo botini pok, kibr-u havodan yiroq, darvesh ko‘ngilli bo‘lib yashasa, shuning o‘zi yetarlidir. Zero, ko‘nglini poklay olgan hukmdor avomga zulm qilmaydi, yurt adl-u eminlikda yashaydi. Aslida, Navoiyning orzusi ham shu.

Mumkin ermas shahlar ichra buyla niyatlig‘, magar
Shohi G‘oziykim, muyassar bo‘ldi bu davlat anga.

“Olam hukmdorlari orasida bunday darvesh ko‘ngilli shohni topish mumkin emas, bu kabi ulug‘ davlat faqat Shohi G‘oziyga – Sulton Husayn Boyqaroga muyassar bo‘ldi”, deydi Navoiy o‘z do‘stidan faxrlanib.

Shohlar darveshi-yu darveshlar shohiki, bor
Shohlig‘ suvrat anga, darveshlik siyrat anga.

Chindan ham, hukmronligining dastlabki yillarida Boyqaro el-ulusga mehr ko‘rsatib, mamlakat rivojiga alohida e’tibor berganligi tarixdan ma’lum. Uning davrini Oybek domla “Navoiy” romanida “Hirotning podshosidan to oshpazigacha shoir edi”, deya ta’riflaydi. Navoiy o‘z do‘stining o‘sha ma’sum yigitlik yillarini “Shohlar orasidagi darvesh, darveshlar ichra shoh”, “Tashqi ko‘rinishi shoh, ko‘ngli esa darvesh”, deb yuksak baholaydi. Biroq hukmronligining so‘nggi yillarida Boyqaroning mayxo‘rlikka berilib, saltanat jilovini malikaning qo‘liga berib qo‘ygani va buning oqibatida suyukli nabirasi Mo‘min Mirzoning qatli to‘g‘risidagi farmonga sarxushlik chog‘ida muhr bosgani ham rost. Maqsud Shayxzoda Xuroson saltanatining bu inqirozini “Boyqaro saroyin shamlari o‘chdi”, deya go‘zal ifodalagan.

To shah-u darvesh bo‘lg‘ay aylagil, yo rab, ayon,
Shohdin xidmat munga, darveshdin himmat anga.

Ushbu baytda Navoiy “Ey Tangrim, shoh bo‘ladimi, darvesh bo‘ladimi, ularning ko‘ngillariga shuni ayon qilgilki, shohlar darveshlarga saxovat ko‘rsatgani, darveshlar esa shohlarni duo qilganlari yaxshiroqdir”, deb ta’kidlaydi.

Gar Navoiy so‘z uzatti faqrdin ermas demang,
Bo‘lmag‘uncha hukm shahdin qayda bu jur’at anga?!

“Navoiy bitgan g‘azal faqirlikdan emas, u o‘z holicha pand-u nasihatga qo‘l uribdi, demang, agar shohdan izn bo‘lmasa, unda (shoirda) bu jur’at qayerdan paydo bo‘lardi?” deb so‘zini yakunlaydi Navoiy. Ehtimol, Boyqaro Navoiyga “Alisherbek, falon mavzuda bir g‘azal biting”, demagandir, ammo bu lutfni hazrat Navoiyning o‘z do‘sti, hukmdor va yaxshigina shoir bo‘lgan Husayn Boyqaroga nisbatan chuqur hurmati ramzi deb tushunmoq kerak.

Muxtasar qilib aytganda, moddiy va ma’naviy jihatdan boy, jamiyat va davlatda yuksak maqomda turuvchi Alisher Navoiy, baribir, darvesh ko‘ngilli inson bo‘lgan va saltanat sohiblarini ham shu yo‘lga da’vat etgan.

Naqshbandiylik shayxlaridan biri sifatida Navoiyning tutgan bunday yo‘li har taraflama e’tiborga molikdir. Bobokalonimizning ulug‘ligi shundaki, bir asar vositasida ham yuksak badiiy mahoratini namoyish eta olgan va bir vaqtning o‘zida chuqur falsafiy g‘oyalarni ilgari surib, zamondoshlari hamda kelajak avlodga ibrat bo‘lolgan. Imkon qadar sharhlaganimiz yuqoridagi g‘azal fikrimiz dalilidir.

TALQIN

NAVOIY DUNYOSI VA DUNYO NAVOIYSHUNOSLIGI



Abdurasul ESHONBOBOYEV,
adabiyotshunos

Ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy ijodiyoti salkam ikki asrdan buyon dunyo adabiyotshunoslik ilmining doimiy tadqiqot obyekti sanaladi. Biz bu o‘rinda taniqli adabiyotshunos, jahon xalqlari madaniyati tarixining bilimdoni akademik Nikolay Konradning “O‘rta Sharq uyg‘onishi va Alisher Navoiy” nomli maqolasi haqida to‘xtalishni maqbul bildik. Sababi, olim tomonidan o‘z vaqtida kun tartibiga asosli ravishda qo‘yilgan, keng ko‘lamda tadqiq etilgan ilmiy muammolar bugun ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Qolaversa, o‘zga madaniyatga doxil taniqli adabiyotshunosning shoir ijodiy merosi yuzasidan bildirgan mulohazalarini diqqat bilan kuzatish, bugungi bilimlar majmuidan kelib chiqib baho berish, munosabat bildirish hamisha foydalidir.

“O‘rta Sharq uyg‘onishi va Alisher Navoiy” nomli maqola 1968-yilda buyuk shoirning 525 yillik to‘yiga bag‘ishlab M.Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti institutida o‘tkazilgan ilmiy sessiyada o‘qilgan ma’ruza bo‘lib, dastlab 1969-yili “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida Naim Karimov tarjimasida chop qilingan.

Olim Markaziy Osiyo mintaqasining geografik o‘rniga e’tibor qaratib, ko‘hna sivilizatsiyalar beshigi sanalgan mazkur makon qadim dunyo savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani va bu holat mintaqa xalqlarining o‘zga madaniyatlar bilan muntazam tanishuvida muhim omil bo‘lganini o‘rinli ta’kidlaydi. Konrad gapni ko‘hna tarixdan boshlar ekan, shoir ijodiga zamin hozirlagan o‘tmish madaniyatdagi vorisiylik hodisasining barqaror va bardavomligi kelgusidagi ilmiy kashfiyotlarga mustahkam poydevor bo‘lganiga alohida ahamiyat qaratadi. Bunday yondashuv muayyan yaratiqning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmasligi, uni tadqiq etganda vorisiylik hodisasini doimo diqqatda tutish lozimligi va ayni holat san’at namunasini chuqurroq, kengroq tushunishga, tushuntirishga asos bo‘lishini anglatadi.

Holbuki, bugun, negadir, masalaning bu jihati tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolmoqda va Alisher Navoiy ijodiga oid ayrim maqolalarda xuddi “tomdan tarasha tushgandek” ish tutilmoqda, ya’ni, shoir mansub qadim tarixiy-madaniy zamin nazardan soqit qilinmoqda. Buyuk shoir esa o‘zigacha mavjud barcha madaniy yaratiqlarni har tomonlama puxta o‘zlashtirib, tanqidiy yondashib qalam tebratgan.

Bu borada mulohaza yuritar ekanmiz, Mixail Baxtinning quyidagi so‘zlari beixtiyor yodga tushadi: “Adabiyotning buyuk asarlari asrlar davomida tayyorlanadi, ularning yaratilish davrida esa uzoq va murakkab yetilish jarayonlarining sarxil mevalari terib olinadi. Asarni faqat uning davriga xos shart-sharoitlardan, faqat eng yaqin zamonning shart-sharoitlaridan kelib chiqib tushuntirish bilan biz hech qachon uning ma’no teranliklariga yetolmaymiz”. Darhaqiqat, tom ma’nodagi buyuk badiiyat namunasi o‘tmishdan kelayotgan adabiy meros bilan muayyan darajada bog‘liq bo‘ladi va agar shunday bo‘lmasa, bunday asarning umri qisqadir.

Olim Uyg‘onishni – Renessansni, eng avvalo, hazrati Insonga nisbatan munosabatning o‘zgarishida ko‘radi, uningcha, insonni barcha narsaning mehvari deb bilish, uni markazga qo‘yish – bu gumanizmning asosiy mezonidir. Shu o‘rinda, buyuk shoirning yaratilganlar ichida eng hurmat va ehtiromga loyiq zot – Insonga bo‘lgan munosabatini bir eslang! Bu holat yolg‘iz Yevropa mintaqasi uchun xos bo‘lmay, balki ko‘hna Sharq uchun ham qonuniy, tabiiy ro‘y berishi mumkin bo‘lgan ulkan ko‘tarilishdir. Bu kabi mulohazalar Sharq adabiyoti namunalariga yangicha ko‘z bilan qarash va uni umumadabiy jarayonning ajralmas, uzviy bo‘lagi sifatida talqin etishga keng yo‘l ochdi hamda yevropaliklarni ustun bilishga oid biryoqlama g‘oyalarga zarba berdi.

Shu bilan birga, Konrad buyuk shoirning milliy til borasidagi xizmatlarini, mana, nimalarda ko‘radi: “Alisher Navoiy “Xamsa”sini ona tilida yaratdi. Demak, u shunday bir til darajasiga ko‘tarilgan ediki, shoir uning yordamida o‘z ongining butun mazmunini to‘la ifodalay oldi... Alisher Navoiy o‘z xalqiga shunday narsani meros qilib qoldirdiki, bu narsa shu tilda so‘zlovchilarda milliy birlikning zaruriy va imperativ tuyg‘usini vujudga keltirishning eng qudratli vositasi bo‘lib xizmat qilishi kerak edi. U haqiqatan ham shunday vosita bo‘lib xizmat qildi. Navoiy o‘zbek xalqining milliy shoiri bo‘lish huquqiga ega edi. Axir, shoir uchun bundan ham sharafliroq rutba bormi?”

Sharqshunos shoir dostonlarini keng miqyos va ko‘lamda daqiq tahlil etar ekan, ularning Renessansga mansubligi yuzasidan g‘arb adabiyoti namunalari bilan chog‘ishtirib, qator mushtarak nuqtalar haqida yozadi: “Tasvir va xarakteristikadagi chegara nimaligini bilmaydigan ana shunday mubolag‘achilik, fantastikaning ana shunday jilovsizligi, romantik – qahramonlik xarakteridagi sarguzashtlar va qaltis ishlar stixiyasi bilan shu tariqa qiziqish, fikrimcha, Renessans dostonlarining muhim xususiyatlarini tashkil etadiki, ularni kim yaratganligi – Nizomiymi yoki Tassomi, Navoiymi yoki Ariostomi, bunda muhim rol o‘ynamaydi. Alisher Navoiy – Renessansga xos bo‘lgan ana shu yo‘nalishning muxtor vakili. Yana qayerda deng? Qadimgi qit’alarning eroniylar va turklar, arablar va hindlar, xitoylar va yunonlar yashagan markaziy viloyatining ulkan yerlari vakili”.

Demak, shoir ijodiy merosini g‘arb adabiyoti namunalari bilan qiyosiy tadqiq etib, o‘ziga xos tomonlari yoxud mushtarak o‘rinlarini aniqlash bugungi navoiyshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Va bunday yondashuv Alisher Navoiyning umumjahon estetikasi tarixida tutgan mavqeyini belgilashga imkoniyat yaratishi mumkin.


Olim nozikta’b adabiyoshunos sifatida “Xamsa” qahramonlari haqida mulohaza yuritar ekan, ularni tarixiylik va zamonaviylik kategoriyalarining uyg‘unligida talqin qiladi va baholaydi: “Iskandarning vasiyatiga binoan uning jasadini Misrdagi Iskandariyaga – sultonning sevimli shahriga dafn etish uchun olib boradilar. Uni tobutda ko‘tarib borayotganlarida, uning qo‘li tobutdan chiqib qoladi. Uning ochiq kaftida hech narsa yo‘q. Tobutdan chiqib qolgan ana shu kaftli qo‘l – hayratomuz badiiy obrazdir. Agar Alisher faqat shu obraznigina yaratganda ham, biz baribir, uning genial shoir ekanini bilgan bo‘lardik”.

O‘ylashimizcha, bu nafaqat hayratomuz, balki ibratomuz obrazdir, chunki uning mag‘zidan inson umri o‘tkinchi, kim bo‘lishingdan qat’i nazar, bir kun kelib bu foniy dunyoni quruq qo‘l bilan tark etasan, degan cho‘ng fikr joy olgan. Yana bir tomoni, bugun butun dunyoda barcha diqqat moddiy boylik orttirishga, nima qilib bo‘lsa ham birni ikki qilishga qaratilib, inson ma’naviy kamoloti masalalari orqa o‘ringa o‘tgan bir pallada bu fikrlarning qiymati karrasiga oshadi. Shu bilan birga, bu kabi hayratangiz obrazlar va o‘lmas g‘oyalarni shoir adabiy merosidan izlab topib, zamonamizning ma’naviy-madaniy ehtiyojlari bilan bog‘lab talqin etish adib asarlarining umrboqiyligini ta’min etadi.

Gap shundaki, shoir ijodiy merosi u hayotlik chog‘idayoq bir adabiy muhit doirasidan tashqariga chiqib, butun mintaqani qamrab olgan edi. Bugun esa bu ulug‘ merosni jahon adabiyoti, aniqrog‘i, adabiy jarayonining uzviy, doimiy, tarkibiy qismiga aylantirish vazifasi dolzarb bo‘lib turibdi.

Eslatib o‘tamiz, olim shoir asarlari bilan faqat rus tiliga o‘girilgan va ko‘pda noto‘liq, qisqartirilgan tarjimalar orqali tanishadi, u to‘liq she’riy tarjimalar yo‘qligidan afsuslanadi hamda Alisher Navoiy adabiy merosini rus tilida mukammal nashr etishni dolzarb masala deb biladi. Ushbu obyektiv sabablarga qaramay, jahon madaniyati va adabiyotining bilimdoni Nikolay Konrad shoir ijodining asl mohiyatini, butun qudratini daqiq anglab, uni ich-ichidan chuqur his qila olgani va bir maqola doirasida aniq ko‘rsatib bergani ahamiyatlidir.

Ko‘rib o‘tganimizdek, taniqli adabiyotshunos ulug‘ shoir ijodiyotini jahon adabiyoti kontekstida tadqiq etishni boshlab bergan olimlardan biri edi. Bugun u ilgari surgan g‘oya nihoyatda dolzarb. Zero, mamlakatimiz barcha sohada jahonda o‘z o‘rniga ega bo‘lib borar ekan, bu qonuniy jarayondan adabiyotshunoslik, jumladan, navoiyshunoslik ham chetda turmasligi kerak.



Keling, Alisher Navoiydek shoir bo‘lgani uchun quvonaylik! Bizga shunday shoirni armug‘on qilgan o‘zbek xalqiga rahmat aytaylik. Uni faqat o‘rganmasdan, tadqiq etmasdan, o‘qib ham yuraylik. Faqat o‘qimasdan, uning ustida o‘ylab ham yuraylik. Uni o‘zimizning shoirimizga aylantiraylik.

Nikolay KONRAD

9-FEVRAL – ALISHER NAVOIY TAVALLUD TOPGAN KUN

"Lison ut-tayr" – ISHQNOMA



Sultonmurod OLIM

Alisher Navoiyning "Foniy" taxallusi bilan bitgan "Lison ut-tayr" dostoni sovet davrida eng ko'p xato bilan talqin etilgan asari hisoblanadi.

Shuning uchun uni "ishqnoma" deb atash dabdurustdan ko'pchilik tomonidan to'g'ri qabul qilinmasligi ham mumkin. Chunki biz "ishqnoma" deganda, ikki jins vakili bo'lgan oshiq va ma'shuqa muhabbati aks ettirilgan, "Tohir va Zuhra", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Zaynab va Omon" kabi asarlarnigina tushunadigan bo'lib qolgan edik-da. Shuning uchun sovet davrida oliy ta'lim talabalari uchun darslik sifatida chop etilgan "O'zbek adabiyoti tarixi"ning birinchi kitobida (1976) ham, fundamental tadqiqot bo'lmish besh jildlik "O'zbek adabiyoti tarixi"ning XV asrning ikkinchi yarmi adabiyotini o'rganishga bag'ishlangan 2-jildida (1977) ham "Lison ut-tayr"ning ishqiy doston ekani qayd etilmagan.

Navoiyning yana bir asari bo'lmish "Mahbub ul-qulub" – oxirigacha mag'zi to'liq chaqilmagan o'ta muhim va noyob badiiy yodgorlik. Unda, jumladan, shoirlar va oshiqlar o'ta nozik darajada, dohiyona zukkolik va aniqlik bilan tasnif qilib berilgan. Shoirlar tasnifida ular ijodiga aynan tasavvuf nuqtayi nazaridan turib yondashiladi. Dadil turib bunday deyishimizga asos bo'ladigan sabab shuki, tilga olingan bir arab va yigirma fors-tojik shoiri orasida "malik ul-kalom" Abu Abdullo Rudakiy (858–941) bilan "ustodi fan" Abulqosim Firdavsiy (935–1020) yo'q. Chunki ularning she'riyatida tasavvuf unsurlari mavjud emas-da. Shunday qilib, Navoiy shoirlarni besh guruhga bo'ladi: "maoniy xazoyinidin ma'rifat javharin ter"ganlar; "haqiqat asrorig'a majoz tariqin mahsul qil"ganlar; "ajoz tariqi adosi alar nazmig'a g'olib va alar bu shevaga ko'prak rog'ib"lar; "haqiqat va majoz tariqida komil va ilmi ikkalasi tariqida vofiy va shomil"lar; "nazm bila ko'ngullar xushnud va xursand va rozi-yu bahramand"lar.

Demak, birinchi guruh haqiqiy ishqni kuylaydi. Ikkinchi guruh haqiqiy ishqni majoziy ishq orqali kuylaydi, ya'ni Xudoning sirlarini majoz, demak, uning suvrati, nusxasi, ramzini tasvirlash orqali aks ettiradi. Uchinchi guruh majoziy ishqning o'zinigina kuylaydi. To'rtinchi guruh ham haqiqiy, ham majoziy ishqni baravar kuylaydi. Bunga muallif faqat Abdurahmon Jomiynigina kiritadi. Mantiqan va mohiyatan Navoiy ijodi ham ana shu guruhga mansub. Beshinchi guruh hayotni tasvirlaydi, lekin bu tasvirlarning haqiqiy ishqqa hech aloqasi yo'q. Buni muallif "adno tabaqa", ya'ni "past toifa" deb hisoblaydi. Xuddi ana shu guruh asarlarida dunyoviy ishq kuylanishi mumkin. Navoiy dastlabki to'rt guruhga kimlar kirishini aniq qilib aytib o'tgani holda, beshinchi guruhga mansub biron-bir shoirning nomini tilga olmaydi. Buni, odob doirasidan tashqari, deb hisoblagan ko'rinadi.

Bu tasnifotda, birinchidan, turkiy adabiyot qamrab olinmagan *(buning sabablarini aniqlash – ilm uchun alohida masala, biz bu mavzuga daxl qilmadik)*, ikkinchidan, muallif kamtarlik qilib, o'zini ana shu to'rt guruhning birortasida qayd etib ketishni lozim topmagan. Biroq maqsadi kelajak avlod kitobxonlariga shunday aniqlik kalitini topshirib ketish ham bo'lgan edi, deyishga to'la asosimiz bor. Garchi turkiy adabiyot qamrab olinmagan bo'lsa-da, bu tasnifni turkiy shoirlarni guruhlashtirishda ham bemalol qo'llashimiz mumkin. Navoiy zamonasida aynan shunday yoki shunga yaqin tasnifdan foydalanilganini tasdiqlash uchun qo'limizda yetarli dalil ham mavjud. Bu "Holoti Pahlavon Muhammad" asarida keltirilgan hazilga yo'g'rilgan bir suhbat. Unda Nasimiy ishqi haqiqiyni, Lutfiy esa ishqi majoziyni kuylagan shoir sifatida qayd etiladi.

"Mahbub ul-qulub"da oshiqlar ham tasnif etiladi. Ularni muallif to'rt guruhga ajratadi. Birinchi guruhda uch turdagi oshiqni sanaydi: inson oshiq timsoli (Farhod, Majnun); ramziy oshiqlar (parvona, u shamga oshiq; andalib, u gulga oshiq); ishqni kuylagan shoir oshiqlar (Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy). Bu oshiqlarning hammasi bevosita adabiyot bilan bog'liq. Shu tariqa asar muallifi ishqni oldindan so'z san'atiga vobasta qilib qo'yadi. Chunki bu unga keyin yana kerak bo'ladi. Xo'sh, bular kimga oshiq? Ya'ni ma'shuq kim?

Navoiyning javobiga ko'ra, u – bir husn: "Va ul ma'shuq husnedin ("bir husndan") iboratdurkim, "Innallohu jamilun yuhibb ul-jamol" (bu hadisi sharif mazmuni: "Haqiqatda, Alloh go'zaldur va go'zallikni sevadi") andin xabar berur..."

Bu "husn sultoni" – Tangri taolo. Muallif shoirlarni tasnif qilganda, ko'rganimizdek, ana shu haqiqiy ma'shuqqa ishq qay darajada tasvirlangani yoki tasvirlangan-tasvirlanmaganidan kelib chiqqan edi. "Lison ut-tayr"da majoziy ishq kuylanganmi yoki haqiqiy ishq tarannum etilganmi?" degan masala mohiyatini ayonlashtirishda bu juda muhim nuqta hisoblanadi.

Haqiqiy ishq ham, majoziy ishq ham mohiyatan bitta tushunchaning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ikkalasining zamirida ham amalda Alloh taologa muhabbat, ya'ni ilohiy ishq yotadi. Shuning uchun "haqiqiy ishq" bilan "ilohiy ishq", bizningcha, teng tushunchalar emas. Boshqacha aytganda, "haqiqiy ishq" va "majoziy ishq" adabiyotdagi hodisani anglatadi. Ilohiy ishq – Xudoga ishq. Uni adabiyotda to'g'ridan to'g'ri tasvirlash usuliga "haqiqiy ishq", biror allegorik, ya'ni majoziy yo'l bilan tasvirlash esa "majoziy ishq" deyiladi.

Demak, ilohiy ishq tushunchasi haqiqiy ishqni ham, majoziy ishqni ham o'z ichiga qamrab oladi. Bular, albatta, musulmon Sharqi mumtoz adabiyotida mavjud ishq tasviri tasnifotidagi yangi qarashlar. Biz bu atamalarni ana shu tarzda qo'llashni taklif qilamiz.

Xulosa chiqyaptiki, "majoziy ishq" degani "dunyoviy ishq" degani emas. Aslo. Axir, dunyoviy ishq zamirida Xudoga ishqqa, hatto, ishora ham ko'zda tutilmaydi-da. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"idagi Otabek va Kumush, "Mehrobdan chayon"idagi Anvar va Ra'no, Hamid Olimjonning "Zaynab va Omon"idagi qahramonlar o'rtasidagi ishqni qaysi asoslarga ko'ra "majoziy ishq" deya olamiz? Bunday ishqni "dunyoviy ishq" deyish kerak.

"Lison ut-tayr"da ham, unga asos bo'lgan Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr"ida ham mohiyatan haqiqiy ishq kuylangan. Biroq bu ikki dostonda, kirish boblarni hisobga olmaganda, Xudo timsoli yo'q. Simurg' ramzan Allohni anglatib kelgan. Bu dostonlarni har qancha ishqi haqiqiy ta'rifidagi asar sifatida baholasak ham, ularda majozning ham alohida o'rni bor.

"Mahbub ul-qulub"dagi oshiqlar tasnifi bilan shoirlar tasnifi aynan mos tushmaydi. Bunga asosiy sabab nima? Mantiqan ikkalasi bir xil bo'lishi kerak edi-ku. Navoiyshunosligimizda hozircha masala bu tarzda qo'yilmagan.

Holbuki, vaziyat shuni taqozo etadi. Buni aniqlamay turib, masalaning asl mohiyatiga yetishning aslo iloji yo'q.

Navoiy oshiqlar tasnifida ishqni endi beshga emas, uchga ajratadi.

Birinchisi, avom ishqi. "Avom"ni hozir, asosan, "o'qimagan", "tushunmagan", "qoloq" odamlarga nisbatan ishlatamiz. So'z aslan "xalq", "ko'pchilik", "omma" degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun Navoiy tasnifidagi bu so'zni "ommaga, ya'ni ko'pchilikka xos ishq" deb tushunishimiz kerak. Bu ishqni ta'riflar ekan, adib shunday deb yozadi: "Avom un-nos orasida bu mashhur va shoye'durkim, derlar: "Falon falong'a oshiq bo'lubtur" va bu nav' kishi har nav' kishig'a bo'lsa bo'lur, shag'ab va iztiroblaricha lazzati jismoniy va shahvati nafsoniy emas va bu qismning biyikrak martabasi shar'iy nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnatdur va muboh va pastroq martabasida parishonliq va mushavvashliqlar va besomonliq va noxushliqlareki, zikri tarki adabdur va bayoni behijobliqqa sabab". Oxiri nikoh bilan tugaydigan bu ishqni bugun "dunyoviy ishq" deb yuritamiz.

Ikkinchisi, xavoss ishqi. "Xavoss" – "xos kishilar" degani. Navoiy ta'rificha: "Ul pok ko'zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko'ngul ul pok yuz oshubidin qo'zg'olmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq". Pok mazharga pok nazar bilan boqish shart. Bu pok mazhar vositasi bilan mahbubi haqiqiy, ya'ni Tangri taolo jamolidan bahra olish zarur. O'zi-ku, "xavoss" deganda, so'fiylar, ya'ni Xudoga oshiqlar tushuniladi. Ammo Navoiy xavoss ishqi qismida ham so'fiylarni emas, balki shoirlarni tilga oladi – Xusrav Dehlaviy, Shayx Iroqiy, Xoja Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy nomlarini hurmat-u ehtirom bilan qayd etadi.

Keyin kamtarlik bilan hazrat Jomiy muhabbati jomidagi quyqalarni ichgan, ya'ni unga payravlik qilgan va uning irshodi sulukidan foniyvash bo'lgan, dard-u ishq yo'lida aytganlari turk ulusida haroratomez va sort (fors-tojik) xaylida ofatangez bir guruhni ham qo'shadi: "Yana ul hazrat jomi muhabbatidin durdkashlar va irshodi sulukidin foniyvashlarkim, dard-u ishq tavri adosida guftorlari turk ulusida haroratomez va sort xaylida ofatangezdur". Bu jumlada Navoiy o'zini ham ko'zda tutadi ("foniyvashlarkim" so'zi ham bejiz qo'llanmagan). Bu bilan o'zini ham shu xavoss ishqi vakillariga qo'shadi. Bahonada bu toifa shoirlarning maqsadini ham bayon etadi.

Uningcha, bu shoirlarning maqsadi uchta: o'zini ana shu xavoss ishqiga mansub qilish; oshiqning og'ir ahvol va ma'shuqning haddan tashqari go'zalligini tasvirlash; oshiq va ma'shuqning bir-biriga yaqinligi va munosibligi, moslashuvi va tarbiyatini aks ettirishdan iborat. Chunki butun koinot bozorining to's-to'poloni va moddiy olam gumbazli yopiq bozorining shovqin-suroni ana shu ishqni so'z va tovush orqali ifodalashdan kelib chiqadi va busiz insonning kalomi joni yo'q bir tanadek, bashariyat alfozi va iboralari gul-u rayhonsiz bir chamandek gap.

Shu tariqa, Navoiy kitobxonni mana bu xulosani hazm qilishga tayyorlaydi: "So'zkim, dard choshnisidin harorati bo'lmag'ay, nursiz sham' bil va sarvarsiz jam' gumon qil. Hosilekim, so'zga bu taronadur va mundin o'zga borcha afsonadur va so'z ishq so'zidur va ko'ngulda hayot nash'asi ishq o'zidur". Agar so'zning dard ta'midan harorati bo'lmasa, uni nursiz sham va boshliqsiz jamoa gumon qilish lozim. Biror asar yozilsa, unda so'z ishq taronasidan iborat bo'lishi kerak va bundan boshqa narsalar faqat afsona, xolos, so'z ishq so'zidan boshqa narsa bo'lmasin, ko'ngilda hayot huzur-halovati faqat ishqning o'zidangina iborat. Xulosa o'rnida keltirilgan baytda Navoiy, adabiyotning bosh vazifasi ishqni kuylashdan iborat bo'lmog'i darkor, degan pozitsiyasini qat'iy qilib qo'yadi:

So'zki, ma'nosida ishq o'ti nishoni bo'lmag'ay,
Bir taharruksiz badan onglaki, joni bo'lmag'ay.

Gap ishq zikrida ketayotgan edi. Fikr burilib, adabiyotga bog'landi. Chunki tasavvufiy dunyoqarash bo'yicha qaralsa, butun borliqning yaratilishidan asosiy maqsad – ishq. Jonli va jonsiz mavjudotning hammasi Xudoga hamd aytadi.

Osmon jismlarining harakati, o'simliklarning ko'kka bo'y cho'zishi, qushlarning sayrashi, daryolarning oqishi-yu dengizlarning mavjlanishi – hamma-hamma narsa zamirida ishq yotadi. Ishq – hayotning mag'zi. Uning mavjudlik tarzi. Modomiki, adabiyot hayotni aks ettirishga mas'ul ekan, u aynan ana shu ishqni kuylashi zarur. Ishqning haqiqiysi esa – Allohga muhabbat, albatta. Bu tahlillardan, Navoiy – bus-butunicha tasavvuf shoiri, degan xulosa kelib chiqadi.

Uchinchisi, siddiqlar ishqi. "Sadaqa", "sidq", "siddiq", "sodiq", "sadoqat" so'zlari, shuningdek, "sidqidil" qo'shma so'zining birinchi kalimasi bir o'zakdan yasalgan. Oddiy ma'noda, rostgo'y, sadoqatli, oqibatli odamga nisbatan ham "siddiq" so'zi ishlatiladi. Diniy ma'noda Xudoga qattiq ishonuvchi, iymoni o'ta baquvvat, Yaratganga sidqi komil kishi ko'zda tutiladi.

Payg'ambarlardan Yusuf alayhissalomning, Muhammad sollallohu alayhi vasallamning xalifalaridan Abu Bakrning laqabi "Siddiq" bo'lgan. "Sidq" deganda, hamma narsani Xudo ko'rib-bilib turibdi, deb hisoblab, hech qachon yolg'on gapirmaslik yo xato ish qilmaslik ham tushuniladi.

Ammo Navoiy "siddiq" so'zini tasavvufiy ma'noda qo'llab, sharhlaydi. Siddiqlar – oshiqlarning eng yuksak darajaga yetganlari. Navoiy ta'rificha, ularda quyidagi xususiyatlar mavjud: siddiqlar Haqning jamoli jilosiga u aks etadigan narsa vositasisiz, ya'ni to'g'ridan to'g'ri shaydo; bular shu darajada o'zini yo'qotganki, Haq jamoli aks etadigan narsalarni mushohada qilish ulardan olib qo'yilgan; bir narsaga (Xudoga yetishga) haddan tashqari berilishlari oqibatida atrofdagi bor narsalarni ko'rish, unga guvoh bo'lishdan mosuvolik ularda halok bo'lish maqomini hosil etgan; agar hodisalar yeli falak gulshani varaqlarini uchirsa, ular bundan xabar topmaydi ham va yulduzlar gulbarglarini har tarafga sovursa, ularga undan asar yetmaydi ham; his-tuyg'ulari tajalliyot jamoli zarbasidan va shavqlari cheksiz ishq hujumi g'alabalaridan hosil bo'lgan; sohibi kitob bo'lgan payg'ambarlar – Dovud, Muso, Iso alayhissalomlar va Muhammad sollallohu alayhi vasallam yetgan darajalardan nazarlarini olishmaydi va Allohga yaqin farishtalar o'tgan yo'llarga nazar tashlashmaydi; hollari matlub (Xudo) jamoli mushohadasi va mashg'ulotlari uning yaratuvchiligi mulohazasi va visol mayi kamoli zo'ridan ko'ngillari o'zini yo'qotgan (bexud) va mast, ketma-ket tajalliyot hamlasidan a'zolari shikast topgan; ruhlarida vasl bodasidan o'zga maqsad va ko'ngillarida Haq mushohadasidan boshqa orom yo'q; bular ishqda vasldan maqsad topganlar va "Inda malikin muqtadirin" maqomida orom olganlar hisoblanadi; bu toifani "vosillar", ya'ni "vaslga yetganlar" va "ishqdan vasl maqsadi hosil bo'lganlar" deyishadi.

So'ng muallif xulosaga o'tadi: "Ishqning g'oyati bu yergachadur va oshiqqa vaslning nihoyati bu so'zni dergachadur. Bu oshiqlarkim, ollinda qabul ahlidurlar va tariqati mashoyix istilohotida "vusul ahli"durlar, bularni "Tangriga oshiq" desa bo'lur, "mahbub" ham va "Haqg'a tolib" ot qo'ysa bo'lur, "matlub" ham". Bu oshiqning ma'shuqqa aylanishi jarayonini aks ettiradi.

Chunki ishq komillikka yetsa, oshiq ma'shuqqa aylanadi. "Bu oshiq edi" yoki "Bu ma'shuq edi", deb o'tirishga hojat qolmaydi. Hallojning: "Ana-l-Haq" ("Men Xudoman") degani, Majnundan ismini so'raganlarida: "Layli", deb javob qaytargani, "Lison ut-tayr"da ("Mantiq ut-tayr"da ham) qushlarning o'zi "si murg'" ("o'ttiz qush") bo'lgani tasavvufda "vasl" deganidir.

"Saddi Iskandariy" dostonining 1-bobida shoir Allohga murojaat qilib, sening chiroying Quyoshiga insonning o'zligi parda bo'la oladi, agar uni o'zligidan kechtirsang, uning senga bo'lgan ishqi kuchayadi, qayoqqa boqsa, seni ko'radi, o'zini yitiradi, deydi:

Seni ko'rdi har yonki, soldi ko'zin,
Chu bori sen o'ldung, iturdi o'zin.

Bu ham aynan "Lison ut-tayr"dagi o'ttiz qushning o'zlari "si" "murg'" bo'lgani bilan bir xil holat tasviri hisoblanadi.

Navoiy umrining so'ngida "Mahbub ul-qulub"ni bejizga yozmadi. Bu asar amalda shoir va mutafakkir dunyoqarashining xulosasi, shu bilan birga, barcha asarlarining o'ziga xos qo'llanmaviy ochqichi, ya'ni kaliti ham hisoblanadi.

Undagi shoirlar va oshiqlar tasnifidan bexabar holda uning ijodi, xususan, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" hamda "Lison ut-tayr" dostonlari mohiyatiga aslo yetib bo'lmas edi. "Mahbub ul-qulub" tasniflariga suyanib, aytish mumkinki, "Farhod va Shirin"da xavoss, "Layli va Majnun" hamda "Lison ut-tayr"da siddiqlar, "Sab'ai sayyor"da esa avom ishqi tasvirlangan.

Bir qarashda, "Farhod va Shirin"da ham, "Layli va Majnun"da ham sevishganlar ishqi qalamga olingan. Endi savol tug'iladi: nima uchun tilga olingan bu birinchi doston nomida oshiq (Farhod) oldin, ma'shuq (Shirin) keyin tilga olingan-u ikkinchi dostonda ma'shuq (Layli) oldin va oshiq (Majnun) keyin qayd etilgan? Sababi, "Farhod va Shirin"da Farhod – Shiringa nisbatan faol, "Layli va Majnun"da Layli – Majnunga nisbatan faol. "Layli va Majnun"dagi ba'zi voqealarga asoslanilsa, Layli oqilona ish tutib, Majnunga nima qilmoq kerakligi yo'lini ko'rsatadi ham.



Tasavvufiy jihatdan, "Farhod va Shirin"da sahv (hushyorlik) yo'li tasvirlangan, "Layli va Majnun"da esa sukr, ya'ni mastlik, sarxushlik yo'li.

"Xamsa"ning birinchi dostoni bo'lmish "Hayrat ul-abror"ni beshlikning umumiy kirishi, deb hisoblasak, "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun"ni tezis sifatida qabul qilishga to'g'ri keladi. Ularda, tasavvufda sahv yo'li bilan ham, sukr yo'li bilan ham asl maqsadga, ya'ni yor vasliga yetish mumkin, degan g'oya ilgari surilib, hayotiy voqealar dalili orqali isbotlangan.

"Sab'ai sayyor" esa antitezis vazifasini o'taydi. Ya'ni unda: "Agar sahv yo'li bilan ham, sukr yo'li bilan yurilmasa, nima bo'ladi?" degan savol o'rtaga tashlanib, hayotiy isboti bilan javob berilganki, bunda asl maqsad amalga oshmaydi. Tabiiyki, "Saddi Iskandariy" sintez o'rnida keladi. Taniqli adabiyotshunos Ibrohim Haqqul o'zbek mumtoz adabiyotidagi ruboiylar kompozitsiyasida 1- va 2-satrlar – tezis, 3-satr – antitezis va 4-satr – sintezdan iborat bo'lishini yaxshi ko'rsatgan va biz yuqoridagi xulosani ilgari surishda ana shu tayyor formulirovkaga suyandik.

Navoiy "Farhod va Shirin"da salaflari asarlariga ham tanqidiy yondashib, jumladan, Xusravning ko'p xotinli qilib tasvirlangani, ya'ni uning goh Maryam, goh Shakar, goh Shirin ishqida yonganini qoralaydi. Lekin o'zi "Sab'ai sayyor"da Bahromni yetti qasrda yetti mamlakat malikasiga uylantirib qo'yadi. Bahrom o'zi bu yoqda Dilorom ishqida kuyib-yonib yotibdi-yu, bu yoqda har kecha bir yangi xotini og'ushida orom olyapti. Bu – "Farhod va Shirin"dagi muallif pozitsiyasiga tamoman zid. Chunki "Sab'ai sayyor"da shoirning maqsadi oxiri nikoh bilan tugaydigan avom ishqi fojiasini ko'rsatish bo'lgan. Buning zamirida, agar ishq avom tasavvurlari darajasidan yuqoriga ko'tarilmasa, ya'ni yashashdan maqsad umrni Yaratgan vasliga yetish ishqi bilan o'tkazishdan iborat bo'lmasa, foydasi yo'q, deyish ilinji yotibdi. Shuning uchun Navoiy asarlari, xususan, dostonlari mohiyatini uning umum ijodidan, ya'ni boshqa asarlaridan ayri holda tahlil etishning aslo iloji yo'q. Bu jihatdan "Lison ut-tayr" ayniqsa ajralib turadi. Tahlillarimiz Navoiy asarlarini o'zaro qiyosiy o'rganish yo'lidagi dastlabki urinishlardan biri sifatida qabul qilinishi lozim.

Endi "ishq", "oshiq" ("ushshoq") va "ma'shuq" tushunchalarining o'zaro vobastaligi masalasi o'rtaga tushadi. "Saddi Iskandariy" 1-bobi oxirida mana bu baytlar ham keladi:

Yaqin anglasam, g'ayr bordur adam,
O'zung oshiq-u ishq-u ma'shuq ham.
Chu ma'shuq-u oshiq sen o'ldung tamom,
Sanga ishq-u ushshoqdin, vassalom.

Bu misollarda Xudoning o'zi "ishq", "oshiq" ("ushshoq") va "ma'shuq" ekani ayonlashadi. Chunki ishqning manbasi – Alloh taolo. Demak, u – ma'shuq.

Oshiq (banda) ma'shuqni sevadi. Uning ishqi komillikka yetsa, ma'shuq ham oshig'ini sevadi. Sevdimi, endi uning o'zi ham oshiqqa aylanadi. Vasl yuz berib, oshiq bilan ma'shuq qovushadi. So'fiyning ruhi Allohga yetadi. Endi: "Bu oshiq edi, bunisi ma'shuq edi", deb ajratishning hech imkoni qolmaydi. "Lison ut-tayr"da o'ttiz ("si") qush ("murg'")ning o'zi "Simurg'" bo'lgani mohiyatida ham aynan shu g'oya yotadi.

Shuning uchun ham "Lison ut-tayr" ishqnomadir.

OLAM OLIMI



ALAN MAKDIARMID

O‘tkazuvchan polimerlar orqali elektronika va kelajak texnologiyalarida inqilob yasagan nobelchi

Zamonaviy kimyo, materialshunoslik va nanotexnologiya fanlarining rivojlanishida olim, kimyo bo‘yicha Nobel mukofoti laureati Alan Makdiarmidning o‘rni beqiyos. Uning o‘tkazuvchan (conductive) polimerlar sohasida olib borgan ilmiy tadqiqotlari an’anaviy elektronika tasavvurini tubdan o‘zgartirib, yangi avlod funksional materiallarining yaratilishiga asos soldi. Uning ilmiy yutuqlari jahon miqyosida keng e’tirof etilgan bo‘lib, tadqiqotlari asosida organik elektronika, LED displeylar, sensorlar va biotibbiy qurilmalar ishlab chiqarilmoqda. U ilm-fanni amaliyot bilan bog‘lay olgan, fundamental kashfiyotlarni real texnologiyalarga aylantirgan olim sifatida tan olinadi.

ILMIY BIOGRAFIYA VA MUVAFFAQIYAT YO‘LI

Alan Grexam Makdiarmid 1927-yil 14-aprelda Yangi Zelandiyada tug‘ilgan. U kam ta’minlangan oilada voyaga yetganiga qaramay, ilmga bo‘lgan qiziqishi va qat’iyati tufayli katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Makdiarmid Vellington universitetida ta’lim olgandan so‘ng AQSHga ko‘chib o‘tdi, Pensilvaniya universitetida doktorlik (PhD) darajasini qo‘lga kiritdi. U o‘z ilmiy faoliyati davomida Kaliforniya universiteti (Santa-Barbara)da ham professor sifatida ish olib bordi. 2000-yilda u Hideki Shirakava va Alan Xiger bilan birgalikda “o‘tkazuvchan polimerlarni kashf etgani va rivojlantirgani uchun” kimyo bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi.

ILMIY TADQIQOT YO‘NALISHLARI

Olim polimer kimyosi va elektr o‘tkazuvchan organik materiallar bilan shug‘ullangan. Tadqiqotlari natijasida odatda izolyator deb qaralgan plastmassa materiallar ma’lum sharoitlarda elektr tokini o‘tkazishi mumkinligi ilmiy jihatdan isbotladi. Olim poliasetilen kabi o‘tkazuvchan polimerlarning tuzilishi, doping jarayonlari va elektrokimyo xossalarini chuqur o‘rganib, organik materiallarning yangi sinfini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Bu esa kimyo va fizika fanlari o‘rtasidagi chegaralarni ochib bergan muhim kashfiyot sifatida baholanadi.

INSON HAYOTI UCHUN AHAMIYATI

Alan Makdiarmidning ilmiy ishlari zamonaviy texnologiyalar rivojida katta amaliy ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlari asosida bugungi kunda organik yorug‘lik diodlari (OLED), quyosh batareyalari, biosensorlar, elektron qog‘oz, yengil elektron qurilmalar ishlab chiqarilmoqda. Bu texnologiyalar energiya tejamkorligi, ekologiya xavfsizligi va narxi arzonligi bilan ajralib turadi. Shu bois bu kashfiyotlarga kelajak “yashil texnologiyalar”ning ilmiy poydevori sifatida qaraladi.

INNOVATSION TADQIQOTLAR

Olim polimerlarning nano miqyosdagi xususiyatlarini o‘rganish orqali nanotexnologiya rivojiga ham katta hissa qo‘shdi. Uning ishlari organik materiallarni biotibbiyot, farmatsevtika va sun’iy intellekt qurilmalarida qo‘llash imkoniyatlarini ochib berdi. Makdiarmid yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash, fanlararo tadqiqotlarni rivojlantirish va innovatsion fikrlashni rag‘batlantirish tarafdori bo‘lgan. Uning fikricha, haqiqiy ilm-fan, jamiyat va iqtisodiyot o‘rtasida ko‘prik bo‘lishi kerak.

O‘ZBEKISTON VA MAKDIARMID

Jadid bobomiz Abdulla Avloniyning nevarasi, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori, polimerlar va nanotexnologiya kimyosi bo‘yicha muhandis Jamshid Avloniy fikri:

– Amerikalik olim Alan Makdiarmid menga ustoz bo‘lgani hayotimda muhim voqelik va yutuqlarimga asos bo‘lgan. Dastavval, men u kishi olib borgan tajribalar va maqolalarni katta qiziqish bilan kuzatib borardim. So‘ng ilmiy tadqiqotlari haqida o‘z fikr-mulohazalarimni bildirib, ko‘plab xatlar yozdim. Nihoyat, Alan Makdiarmid bilan Germaniya va Avstriyada o‘tkazilgan konferensiyalarda uchrashishga muvaffaq bo‘ldim. O‘zaro suhbatdan keyin birga ishlashni taklif qildi. Bundan juda xursand bo‘ldim.

Olimning laboratoriyasida 1991-yildan 1995-yilga qadar ishlab, katta tajriba orttirdim. Bu inson o‘tgan asrning 70-yillarida polimerlarga oid izlanishlar olib borgan. 2000-yilda ustozim hamkasblari bilan birga Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Ushbu e’tirofga sabab bo‘lgan ilmiy yangilikda mening ham kamtarona hissam bor.

Alan Makdiarmid umri davomida sanoqli mutaxassis bilan ishlagan. Ular orasida bo‘lganimdan faxrlanaman.

XULOSA

Alan Makdiarmidning ilmiy merosi zamonaviy kimyo, materialshunoslik va yuqori texnologiyalar rivojida ulkan ahamiyatga ega. Uning o‘tkazuvchan polimerlar sohasidagi kashfiyotlari insoniyatning texnologik taraqqiyotiga yangi yo‘nalish berdi. U nafaqat buyuk olim, balki ilmga sadoqat, mehnat va qat’iyat orqali yuksak cho‘qqilarga erishish mumkinligini isbotlagan ilhom manbayi sifatida ham tarixda qoladi.

Zarnigor IBROHIMOVA tayyorladi.

Navoiy Hirotda,



Boshlanishi 1-sahifada.

Alqissa, faqiringiz ozod-u obod va ham saodatmand Vatanimizning muborak tuproqlaridan olisda yotqan Abu Rayhon Beruniy, Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Husayn Mirzo, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Lutfiy, Kamoliddin Behzod, Boborahim Mashrab (ularga Allohning rahmati va mag‘firati bo‘lsin) kabi ulug‘ siymolarni ziyorat etmoqqa ko‘p yillardin buyon orzumand erdi. Qadam urmoq niyati paydo bo‘lgan zamondayoq, mardumi hushyordan “Ul tufrog‘da xavf-u xatar bisyordir” qabilida ko‘p daf’a chaqiriq bo‘ldi. Qulingiz ersa, bisyor shijoatlig‘ va ham sertavakkulkim, aning ulug‘ ajdodlar ziyoratidan benasib qolmoqqa zinhor havasi yo‘qdur.

Shu fursatlarda mutlaqo tasodifan oyinayi jahonda hazratimning muborak siymosi paydo bo‘lib, misra o‘qildiki:

“Yo‘l yamon-u yaxshisidin yema g‘am,
Bismilloh, degil-u qo‘ygil qadam”.

Munikim, g‘oyibdan kelgan shakli ijoza o‘laroq qabul aylab, yo‘lg‘a tushdim.

TARIX O‘TTIZ VA O‘TTIZ BIRINCHI YANVOR VOQE’ALARI

Afg‘on o‘lkasiga kirmak uchun ijoza olmak g‘oyat mushkuldur... Mundin avval taqriban bir oy zo‘r berib urundim. Turlig‘ idoralarg‘a payg‘om yo‘llab, necha-necha bodi sabog‘a arzimni aytdim. Oxiri tavakkul aylab, sarhad sari yuzlandim. Borib, bir hojatbarorni topib, yo‘llarini o‘rgandim. Aytdikim, hozir qonsul qabuliga kirib, qon yutsang ham zinhor ishing bitmas. Hargiz yodingda bo‘lsinkim, jarida, ro‘znoma va yo gazet muxbiri ekaningni hech kimga aytma. Kimsan, shahri Toshkand dorug‘asi bo‘lsang-da, kasb-u koringni xufya tut. Ziyorat-u tijorat, siyosat-u rayosatga aloqasi yo‘qlar kira olurkim, sen alardan emasligingga ishontir. Men esam, rosti-rusti tamoilini mahkam tutdim va qabulga kirdim. U yerda pushtun, tojik, hindiy, eroniy, va albatta, turkiylar navbatda turgandi va har ikkinchi odam ortiga noumid qaytayotgandi. Xudovandi karim pok niyatlig‘ bandasiga rahm aylab, meni bir turkmanga ro‘baro‘ qildi. U hujjatlarimni risoladagidek to‘ldirib, qardoshiga qayishdi. So‘g‘in men oldindan tayyorlab qo‘yilgan va bir misqolcha yolg‘oni yo‘q bahonamni peshkash qildim. Ular muni tinglab o‘bdan ko‘z yoshi qilub, ruxsat berdilar.

MENING TA’SIRCHAN NUTQIM

“Asli volidayi muhtaramamning bobosi mulkdor o‘tgan. Bu sababdankim, sho‘rolar davrida ko‘p mashaqqatga giriftor bo‘lgan. Bosqinchining askarini urgach, uni Sibir qilmoq payiga tushdilar. Jon omon bo‘lsa, do‘ppi topilar, deya bir kechada yurtdan chiqib ketishga qaror beradi. Afg‘onistonga muqim joylashib olgach, ortda qolgan farzandlarini tilab, necha daf’a maktub yo‘llaydi. Bu yerdagilar xatlarni sho‘ro fitnasi deya gumon qilib, mundog‘ javob yozadilar: “Farzandlaring kasallikdan o‘ldikim, boshqa so‘rma...” Shundan-shu ota-bolalar bir-birini tilamay qoladi. Alqissa, men shu bobokalonim qabrini izlab keldimki, rahmatli bobomning vasiyati shu erdi...”

HAYRATON HAYRATLARI

Baxtimdan aylanay, ikki davlatni bog‘lab turuvchi yagona ko‘prikdan o‘tish nasib etdi. Chunki 2021-yilda bu yer yopilgan, Ayritomdan bir soatlik yo‘l bo‘lgan Mozori Sharifga yetib borish uchun kishilar Tojikiston orqali bir kun aylanishga majbur bo‘lardi. Hozir bu cheklovlar bekor qilingan.

Ko‘prikda turib, muazzam Amudaryoga termulgancha, to‘yib nafas olish baxtiga muyassar bo‘ldim. Shu daryo ortida o‘n milliondan ortiq o‘zbek yashaydi. Ular “O‘rtamizga bir daryo tushdi va buning ustiga alifbomiz o‘zgardi. Sizdan ayro tushdik. Ammo har qancha mashaqqat bo‘lmasin, tilimiz va urf-odatlarimiz uchun kurashdik”, deydi. Bu haqida keyinroq bafurja...

Chegaradan o‘tdim va shunda... dunyo ko‘z oldimda butunlay boshqa rangga kirdi. Ravon yo‘llarimiz, ozoda postlarimiz, xushmuomala xodimlarimizning qadri bilindi. Loy kechib, katta yuk mashinalar va afg‘oncha kiyingan mardum oralab o‘tkazuv qismiga yetib bordim. Chiqishim bilan o‘n nafarcha ehsontalab girdimni o‘rab, menga tushunarsiz tillarda tilanishdi. Shukurki, meni uzoqdan tanigan mezbonlarim yugurib kelib, bu qamaldan ozod ayladi.

Butun safar davomida meni vasiylikka olgan yigitning ismi Hibatulloh Ya’qub o‘g‘li bo‘ladi. U “UzbekTV” jurnalisti, bir necha bor til va millatni himoya qilgani ortidan asir olingan. O‘lguday millatsevar. Ko‘p daf’a o‘limdan qolgan. Beminnat haydovchimiz – doktor Mahdiy ham ochiqko‘ngil va jasoratli, millatsevar inson ekan. Yo‘lda o‘zbek bo‘lish sharafi haqida gaplashib ketdik. Qo‘shtepa kanali yoqasida to‘xtadik. Loyihaga ko‘ra, kanal Balx, Juzjon va Faryob viloyatlaridagi yerlarni sug‘orish imkoniyatini berishi kerak. U yerlarda o‘zbek va turkmanlar yashaydi. Ammo bu unumdor yerlarga mamlakatning janubiy mintaqasida yashaydigan elatlar ko‘chirib kelinmoqda. Kanalga hozircha daryodan suv kelmaydi, yer osti sizova suvlari bilan to‘lib turibdi.

Yo‘lda davom etdik. Bir postda Tolibon askarlari to‘xtatdi. “Qaydan kelasan, qayga ketasan” bo‘lgandan keyin, ikki askari mashinamizga o‘ltirdi. Quchoqlarida “Kalashnikov” – o‘qlangan. Ular bilan salonga ter hidi va xuddi shunday ruhiy muhit kirib keldi. Mezbonlar milliy gaplarni to‘xtatdi va allaqaygacha pushtunchada gaplashib ketdi.

BESHIKDAN MOZORGACHA...

Mozori Sharifgacha ancha yurdik. Atrof cho‘l. Shamol qumli yerda to‘lqin-to‘lqin mavj qoldirgan. Kun quyoshli, ammo sovuq. To‘g‘rida ulkan elektr ustunlari oyoqlarini kerib turibdi. Ushbu simlar jonajon O‘zbekiston saxovatidan darak... Shuni ham tarmoqda gap qilganlar bo‘ldi. Ammo bilsinlarki, nonimizning bir burdasini begonaga emas, daryoning narigi tomonida yashayotgan tildoshlarimizga uzatyapmiz...

Birozdan so‘ng daraxtlar ko‘rindi. Shoxlari bir tomonga qayrilib qolganiga qaraganda, shamol kuchli bo‘ladi. Afg‘on shamoli! Qarshimizdagi tog‘larning nomini so‘radim: Tirbandi Turkiston! Aytishlaricha, bu tog‘ning biz tomonida turkiy ellar, narigi tomonida pushtunlar ko‘p yashaydi.

Shaharga kirdik. Ikki askar qurilish mollari sotiladigan shaxobchaga o‘xshash joyda tushib qoldi. Bizningcha, Ichki ishlar bo‘limi ekan...

Shu joydan hammasi boshlanib ketdi. Mashinalar tartibsiz harakatlanadi. Har qadamda qarshingizdan yo‘lovchi chiqib qoladi. Yo‘l chetida qumg‘on qo‘yib, o‘tgan-ketganga choy sotib o‘tirgan chollarni ko‘rdim. Go‘yo bir katta bozor har tarafga sochilgandek shovqin, ziravorlar hidi, o‘zbekcha, tojikcha, dariycha va yana bir qancha tillar qorishib ketgan chaqiriqlar, liboslar, chehralar, ovozlar – hammasi turli-turli...

OVORAYI IKKI JAHON BO‘LDUM...

Avvalo, shaharning istalgan joyida rasm yo video olishingiz uchun maxsus ruxsatnoma kerak. Shahar “madaniyat bo‘limi”ga yo‘naldik. Mahalla idorasiga o‘xshash bir binoga boshlab borishdi. Eshik oldida rosa tekshirib kiritishdi. To‘g‘ri rahbar qabuliga bordik. Kichik bir xona. Zax va is gazi anqib turibdi. Ixchamgina gaz baloni rezina quvur orqali gaz plitasiga ulangan va shunday yonib turibdi. Faqat rahbarni isitadi. Stol-stul yo‘q. Muddaoni aytdik. U esa “Afg‘on tur shirkati”ga yubordi. Katta bank ortidagi ko‘rimsizgina binoda ham shu holat. Ammo stol-stul bor. U yerda bizni chehrasi nurli huquqshunos kutib oldi. Huquq va majburiyatlarimizni erinmasdan, xushmuomalalik bilan tushuntirdi. Alqissa, Hibatulloh menga mas’ul. Shunday gap bo‘ldi: “Mehmonimizga biror kor-hol bo‘lsa, sening yoqangdan olaman. Mabodo, biror ishkal boshlasa va yurtiga ketishga ulgursa, yana seni taniyman. Boshidan bir tola sochi to‘kilmasin. Mana bu tilxatga barmoq bos...”

Ruxsatnoma, har bir shahar uchun alohida to‘lanarkan. Men Mozori Sharif, Kobul va Hirot shaharlarida tasvirga olish hamda tarixiy obidalarga kirish huquqini beruvchi ruxsatnoma uchun ellik dollar atrofida pul to‘ladim.

JAHON AYVONIDA

SHAXSIY MA’LUMOTLARNI TARQATGANLIK UCHUN JARIMA

Niderlandiya ma’lumotlarni himoya qilish boshqarmasi 10 ta boshqaruv organiga musulmon jamiyati haqida ularning ruxsatisiz tadqiqot o‘tkazib, shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunlarni buzgani uchun jami 250 ming yevro miqdorida jarimaga tortdi. Bu haqda NOS telekanali xabar berdi.



2021-yilda munitsipalitetlar maxfiy ravishda tadqiqotlar buyurtma bergani va musulmon aholisi haqidagi shaxsiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan fayllarni qayta ishlagani ma’lum bo‘lgan edi.

AYOLLAR MOTOTSIKL HAYDASHI MUMKIN

Eron hukumati ayollarga mototsikl haydash uchun litsenziya berishni nazarda tutuvchi qarorni ma’qulladi. Shu tariqa ayollarga rasmiy ravishda ikki g‘ildirakli transport vositalarini boshqarishga ruxsat berildi. Bu haqda Anadolu xabar berdi.



Hukumat qarori hozirda ijro bosqichiga kirgan, biroq litsenziyalar berilishi boshlanadigan sana aniq emas.

ENDI ISPANIYADA CHEKLOV

Ispaniyada 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslar uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni taqiqlash rejalashtirilmoqda. Bu haqda mamlakat bosh vaziri Pedro Sanches BAAda bo‘lib o‘tgan yetakchilar sammitida ma’lum qildi.



Bosh vazir so‘zicha, alaloqibat ijtimoiy platformalar “shunchaki xo‘jako‘rsinga emas”, balki foydalanuvchilar yoshini nazorat qilishning samarali tizimini joriy etishga majbur bo‘ladi.

Taklif etilayotgan taqiq voyaga yetmaganlarning raqamli himoyasi to‘g‘risidagi amaldagi qonunga o‘zgartirishlar doirasida qabul qilinadi. Qonun loyihasining muhokamasi kelgusi haftada boshlanishi kutilmoqda.

OQ UY YONIDA KOLUMB HAYKALI



AQSHda Prezident Donald Tramp tashabbusi bilan Oq uy hududida mashhur kashshof Xristofor Kolumb haykali o‘rnatilishi mumkin. Bu haqda Komonews nashri xabar berdi.

Yodgorlik 2020-yil yozida shikastlangan Kolumb haykalining qoldiqlaridan yasaladi.

MUTOLAA

Bundan bir yuz o‘n yil muqaddam Ismoilbek G‘asprali o‘spirin Abdulhamid Yunusov – Cho‘lpon savollariga javob maktubida: “Adabiyot o‘tda yonmas, suvga botmas”, deb yozgan edi. Darhaqiqat, chinakam san’at durdonalari oradan asrlar oshsa ham, bashariyat oldidagi o‘zining tarixiy missiyasini bajaraveradi. Olam va odamni anglatadi, ko‘ngillarga zavq-shavq bag‘ishlaydi, ishq-muhabbat atalmish bebaho yurak javharini, his-tuyg‘ularni yangilaydi.

Abdulla Qodiriyni jismonan mahv etgan manfur tuzum “O‘tkan kunlar”ni ham o‘zbek millati shuuridan o‘chirib, ruhiyatidan butkul chiqarib tashlashga chog‘langan edi. Shu bois, bu bebaho asar necha o‘n yillar davomida o‘quvchilar ko‘zidan yashirin tutildi. Javonlardan olib tashlandi. Hatto, shu kitobni o‘qigan odamga ham “xalq dushmani” yorlig‘i yopishtirildi, jazo berildi, zindonband qilindi. Shunday o‘lmas romanni o‘tda yoqmoqchi, suvga, cho‘ktirmoqchi bo‘lishdi.

Ammo chin san’atkorning durdona, haqqoniy adabiy so‘zi hamma zamonlarda ziyo ahlining shuuriga marmar toshga o‘yilgan naqshdek o‘rnashgan bo‘ladi. O‘sha qatag‘on zamonlarida ham “O‘tkan kunlar” romani o‘qildi. Faqat qorong‘i kechalarda, tunlari yashirin ravishda, sassiz-muhokamasiz, targ‘ib-tashviqsiz, jimgina sabr bilan o‘qildi va uqildi.

Vaqti keldi – “O‘tkan kunlar” yorug‘lik yuzini ko‘rdi, o‘quvchilar qo‘liga qaytarildi. Dunyo tillariga tarjima qilindi. Bir asrlik yoshga

Kobulda Bobur



Keyin shahar “Ichki ishlar bo‘limi”ga yo‘l oldik. Mashina va gavjum omma oralab bordik. Ikki nafar qurollangan tolibon boshlab kirdi. Eski hovliga o‘xshash joy. Atrofi xarob. Uzun yo‘lak bo‘ylab yurdik. Shiftda o‘rgimchak nihoyatda quyuq va uzun in qurgan. G‘ira-shira. Devorlar eski, rangi o‘chgan. Taxminan yigirma yil avval ta’mirlangan.

Katta rahbarga olib kirishdi. Oddiy xona, yana o‘sha zax va gaz hidi. Yupqa gilam to‘shalgan. To‘g‘rida ikki qavat ko‘rpacha, yonida kotibi uchun ko‘rpacha, eshik oldida yana bir ko‘rpacha. Xullas, oddiy idorada stullar qanday joylashtirilsa, bu yerda ko‘rpachalar shunday to‘shalgan. Har birida ikkitadan lo‘labolish. Yonboshlab olgan rahbar kirishimiz bilan o‘rnidan turdi. To‘rdan joy ko‘rsatdi. Soqol va soch patila-patila, bir-biriga ulanib ketgan. Nihoyatda sovuq va jiddiy, ammo hurmatimizni joyiga qo‘ymoqda. Bizni boshlab kelgan huquqshunos hujjatlarimiz va o‘zi tayyorlab bergan ruxsatnomani tavoze bilan unga uzatdi. U esa bir qog‘ozga, bir bizga sinchkovlik bilan nazar soldi. Pushtunchada nimadir dedi. Tarjimasi: “Bizdan qo‘rqmasin, tekshiruv shundayligini ayt”. Keyin bu shaharda uning hifz-u himoyasidaligimni samimiy tushuntirib, kuzatib qo‘ydi. Salkam besh soat cho‘zilgan yugur-yugurdan keyin qo‘limda qog‘oz, dilimda quvonch bilan Ko‘k masjid sari yurdim.

RAVZAI SHARIF MEHMONI...

Bu yerda ham qirq daqiqa boshliqdan boshliqqa “chavgon” bo‘lgach, oppoq soqolli, yuzi farishtali imomdan ruxsat oldik va tasvirga olishni boshladik.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, bu yerda payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning suyukli kuyovlari Hazrati Ali (r.a) dafn etilgan. Saljuqiylar hukmdori Sulton Ahmad Sanjar bu yerda birinchi maqbarani qurdirgan. Ammo 1220-yilda Chingizxon uni buzdirib tashlagan. 1481–1482-yillarda Xuroson hukmdori Sulton Husayn Mirzo tashabbusi bilan Alisher Navoiy nazorati ostida qayta tiklangan masjid devorlari va gumbazlari feruzarang toshlar va bo‘yoqlar bilan ishlov berilgani uchun “Ko‘k masjid” nomini olgan.

Asrlar davomida muntazam olib borilgan ta’mir ishlari sababli, masjid Afg‘onistondagi yaxshi saqlanib kelayotgan tarixiy qadamjolardan biri hisoblanadi. Majmuada bino tarhini chizgan me’mor Said Tojiddin Andxo‘yiyning qabri ham bor. Maqbaraning ichki peshtoqiga yetti kilogramm sof oltindan ishlangan peshlavha osilgan, unga shahodat kalimasi naqsh etilgan. Bu marshal Abdurashid Do‘stum tomonidan hadya qilingan. Aytishlaricha, bir yili uni olib qo‘yishgan va butun mamlakat o‘zbeklari oyoqqa turgan. Shahar hokimi so‘roqqa tutilgan. Natijada, peshlavha o‘z joyiga qaytarilgan.

Bu yerda mahalliy o‘zbeklardan biri bilan suhbatlashdim. Shuncha notinchliklar ko‘ribsiz, nega xorijga chiqib ketmadingiz, deganimda shunday javob berdi: “Men Navoiy, Bobur, Lutfiy, Mashrab yotgan tuproqlarni bir o‘zbek o‘laroq tashlab ketishga ko‘zim qiymaydi. Chunki ular bundan besh yuz yillar avval shu tuproqni bizga meros qoldirgan. Sen Amir Temur yotgan muqaddas tuproqni tashlab ketgan bo‘larmiding?”

YODGORLIK QAYTADIMI?

Alisher Navoiyning haykali deyarli 17 yil Mozori Sharif markazida turgan. 2025-yil avgustda mahalliy hokimiyat tomonidan haykal buzib tashlangan. Bunga sabab sifatida u o‘rnatilgan joy “Navoiyning xotirasi uchun munosib emas”, deb baholangan. Afg‘oniston tomoni Navoiyning xotirasini munosib tarzda hurmatlash maqsadida yangi memorial majmua qurilishini bildirdi. Yangi joyda haykal, Navoiy hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar bo‘lishi hamda maydon uning nomi bilan atalishi ko‘zda tutilgan. Buni esa butun dunyo o‘zbeklari intizor kutmoqda.

“SEN MASHRABSAN... BALXDA DORGA OSILGAN...”

Balx shahri va uning tarixiy-ma’naviy ziyoratgohlari qadimiy Xuroson madaniyatining muhim qatlamini aks ettiradi. Safar davomida bir-biridan qiziq manzillarda bo‘ldik. Avvalo, shahar tarixining eng qadimiy harbiy-me’moriy inshootlaridan biri bo‘lgan Balx qal’asiga bordik. U turli davrlarda qayta-qayta qurilgan. Undagi Ayyoron burji mudofaa tizimining muhim qismi bo‘lgan qo‘riqlash minoralaridan biridir.

“Xo‘ja Porso” masjidi esa temuriylar davrida Gavharshodbegim tomonidan qurdirilgan bo‘lib, ilm-ma’rifat va tasavvuf markazi sifatida tanilgan. Masjid yaqinda bo‘lgan zilziladan shikastlangan, hozirda ta’mirlash ishlari olib borilmoqda. Yonida fors-tojik va turkiy adabiyot tarixidagi ilk mashhur shoiralardan bo‘lgan Robiya Balxiy maqbarasi bor.

Hazrati Shis alayhissalomning ulkan qabri Balx atrofidagi eng qadimiy ziyoratgohlardan biri bo‘lib, asrlar davomida muqaddas joy sifatida e’zozlangan. Buni mahalliy aholi turlicha izohladi. Ma’lumot uchun, Shis alayhissalom hazrati Odam alayhissalomning o‘g‘li hisoblanarkan.

Mavlono Jaloliddin Balxiy (Rumiy)ning otasi Bahouddin Valad qurdirgan xonaqohda bo‘lganimda, Radiy Fish romanida tasvirlangan voqealar ko‘z o‘ngimda qayta jonlandi. Mavlononing bolaligi o‘tgan yerlarda yurib, ruhiy yengillik tuydim o‘zimda. Uning atrofida bir to‘p bolalar koptok o‘ynab, qiyqirib yurishibdi. Romanda ham shunga o‘xshash tasvirlar bor edi. Yodgorlik atrofi temuriylar davriga oid me’morlik uslubiga o‘xshash devor bilan o‘ralgan. Bu yerni obod qilish uchun Turkiya hukumati bir necha bor mablag‘ ajratgan va qisman bo‘lsa-da, ko‘zlangan natijaga erishilgan.

Qadimgi Balx bir vaqtlar Xorazmshohlar davlati tarkibida bo‘lgan. Qal’ada xorazmlik va buxorolik sarkardalarning qabrlarini ko‘rdik. Ular Chingizxon bosqini davrida Jaloliddin Manguberdi boshchiligida hududni himoya qilish yo‘lida qurbon bo‘lgan. Qabrtoshlardan birida “Pahlavon Ahmadi Zamjiy”, yana birida “Pahlavon Nazarshoh Xorazmiy” deb yozilgan.

“KOBULDA IQOMAT ETDI BOBUR, DERSIZ...”

Kobul shahri, bilmadim, nechanchi iqlimdandir, borganimda juda sovuq edi. Qor yog‘ib o‘tganiga yarim oy bo‘lgan esa-da, hamon ba’zi yerlarda muz bor. Bu shaharda tez-tez chiroq o‘chib turishi rasm erkan. Chunki shaharga shimoliy viloyatlarga kelgani kabi qo‘shni davlatlardan elektr kelmaydi...

Bir kecha tunash uchun mezbon yashaydigan o‘n ikkinchi qavatga chiqdik. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, xonada ajib bir sandal voqe’ bo‘libdur... Uni ham gaz baloncha orqali isitishadi. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan tunda o‘chirib, shuning taftida uxlashadi. So‘rasam, butun shahar shunday jon saqlarkan. Puli borlar ko‘p qavatli uyda ko‘mir yoqiladigan pech qurgan va shundan joni huzurda...

Ertasi kuni uchoqda, qush parvozi balandligidan razm solsam, ko‘rpadek qora tutun shahar boshiga soyabon bo‘libdur... Bilsam, allergiyam shundan qo‘zigan ekan.

Kobul haqida batafsil ikkinchi maqolamda so‘zlaymen...

“...GUHARI SHARIFROQ YO‘Q ONDIN”

Hammasi juda oson bo‘ladi, deb o‘ylagandim: Toshkentdan uchaman, Hirotga qo‘naman, tayyoragohdan shundoq chiqib, asosiy yo‘ldan markaziy maydongacha 16 kilometr yuraman va chapga burilib, yana 2 kilometr qadam uraman. Qarabsizki, hazrat Alisher Navoiy maqbarasi qarshisidaman! Lekin... Bular bari xaritaga soatlab termulgancha surilgan xomxayol bo‘lib chiqdi. Doim ham osonlikcha xamirdan qil sug‘urilmaydi.

“Gavharshodbegim bog‘i”ga yetdim. Kichik tushuntirish: Amir Temurning o‘g‘illaridan biri – Shohrux Mirzo, uning rafiqasi – Gavharshodbegim, farzandlari – Ulug‘bek Mirzo, Boysunqur Mirzo, Jo‘ki Mirzo... Malika maqbarasi yonida hazrat Alisher Navoiy maqbarasi... Malika Xurosonda ko‘plab bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Hirotda Musallo ansambli, Balxdagi naqshinkor masjid, o‘zi qo‘nim topgan maqbara shular jumlasidan.

Alisher Navoiy maqbarasi – Musallo markazida, Injil arig‘ining janubiy qirg‘og‘i yaqinida joylashgan gumbazli oddiy bino bo‘lgan. Hirotlik savdogar hoji G‘ulomhaydar Muxtarzoda 1947-yilda Gavharshodbegim maqbarasiga qiyoslab qurdirgan. Yillar o‘tib, maqbaraning holati yomonlashgan. 2000-yil boshlarida O‘zbekiston hukumati tomonidan maqbarani qayta qurish ishlari boshlanadi. Ammo siyosiy vaziyat keskin o‘zgargani sababli, ustalar hududni tark etishga majbur bo‘ladi. Keyin hirotlik o‘zbeklar hashar yo‘li bilan maqbarani qayta tiklashadi.

Siyosiy vaziyat yumshagach, Bobur xalqaro jamoat fondining ilmiy ekspeditsiyasi 2015-yilda uch marta Afg‘onistonga safar uyushtirib, hududda obodonlashtirish ishlarini olib borgan. Yangi qabr toshi Navoiy viloyati G‘ozg‘on qishlog‘ida yashovchi usta sangtarosh Tohirjon Rahimov tomonidan, maqbara eshigi toshkentlik yog‘och ustasi Alisherbek tomonidan tayyorlangan. Qabr toshining og‘irligi salkam 3.5 tonna, unga Qur’oni Karim oyatlari va shoir qalamiga mansub misralar o‘zbek va fors tillarida o‘yib yozilgan... Zokirjon Mashrabov boshchiligida ekilgan 2 ming tupga yaqin ko‘chat allaqachon barvasta daraxt bo‘lganini ko‘rib quvondim.

Ammo bu yerga kirish uchun maxsus ruxsatnomadan tashqari, qorovullarni ham rozi qilish kerak bo‘ldi. Kirish qiyin bo‘lganiga qaramay, bu joyda chog‘roq voleybol maydonchasi qurishga ham ulgurishgan... Hazratning maqbarasi yonida u kishi yozgan g‘azallarni o‘qish baxti nasib etganidan boshim ko‘kka yetdi. Hatto bir chetda o‘qrayib turgan qorovullar ham kayfiyatimni buza olmadi.

“SHOH G‘OZIYG‘A KARAM AVVALG‘ILARG‘A O‘XSHAMAS...”

Tarixchi Xondamir Navoiy qurdirgan imoratlarning aniq tafsilotlarini keltiradi. Ular orasida 52 rabot, 18 masjid, 3 madrasa, 16 ko‘prik, 19 hovuz, 9 hammom va boshqa bir qancha imoratlar va inshootlar bo‘lgan. Albatta, bu qadar keng ko‘lamdagi bunyodkorlik ishlari ortida saxovatli bir sultonning ma’naviy va moddiy qo‘llovi turibdi. Ammo bugunga kelib, zilol suv ichish u yoqda tursin, qo‘l yuvishga ham yaramaydigan holga kelib qolgan Injil arig‘ining narigi tomonida yotgan Sulton Husayn Mirzoning qabri ochiq osmon ostida, g‘oyat ayanchli bir holda qolgan. Qabrtosh noyob toshdan ishlangani sababli bir necha bor o‘g‘irlashga urinishlar bo‘lgan, shu sabab singan ham. Ayni paytda u shisha bilan muhofaza qilingan, ammo uning ham bir tomoni darz ketgan...

“UMIDIM ANDOG‘KI...”

Temuriylar davri me’morchiligining eng muhim islomiy yodgorliklaridan biri Musallo majmuasi hisoblanadi. XV asrda barpo etilgan ushbu majmuaning katta qismi bugungi kunda butunlay vayron bo‘lish arafasida. Saqlanib qolgan inshootlar esa jiddiy ta’mir va muhofazaga muhtoj. Hozirgi paytda majmua hududida Hirotdagi mashhur beshta Musallo minoralari, Alisher Navoiy maqbarasi, Gavharshodbegim maqbarasi, shuningdek, yirik masjid va madrasa qoldiqlari mavjud.

Musallo majmuasining qurilishi 1417-yilda temuriy hukmdor Shohrux Mirzoning zavjasi Gavharshodbegim tashabbusi va rahbarligida boshlangan. Qurilish ishlari XV asr oxirida Sulton Husayn Mirzo davrida barpo etilgan madrasa bilan nihoyasiga yetgan. Dastlab shu kabi minoralar yigirmata bo‘lgani haqidagi faktlar bor. 1885-yilda ingliz harbiy kuchlari hamda o‘sha davrdagi Afg‘oniston hukumati tomonidan majmua binolarining asosiy qismi buzib tashlangan va bu tarixiy yodgorlikka katta zarar yetkazilgan. So‘ngroq sovet askarlari tomonidan artilleriya to‘plari yordamida vayron qilingan. Keyingi davrlarda sodir bo‘lgan zilzilalar va harbiy to‘qnashuvlar natijasida minoralarning to‘rttasi qulagan. Yaqin vaqtlargacha majmua o‘rtasidan o‘tuvchi yo‘l faqat piyodalar uchun ochiq bo‘lib, mashinalar harakati cheklangan ekan. Endi esa bir tomoni rekshalar “stoyankasi”ga, o‘rtasi qatnov yo‘liga aylantirilgan. Og‘ir vazndagi yuk mashinalari o‘tib qaytishini ham hisobga olsak, minoralar yaqin yillarda o‘z-o‘zidan qulaydi... Mahalliy o‘zbeklar butun dunyo madaniyat posbonlarini ushbu tarixiy obidalarni saqlab qolishga chaqirmoqda.

Safar davom etayotir. Nasib, keyingi taassurotlarni ham Siz, o‘qiguvchilarga mavridi bilan yetkarurbiz. Shavkatli bobomiz Bobur Mirzo lutfida: “Yaxshiliq bo‘lg‘ay bo‘lg‘ay”.

Shahriyor SHAVKAT
Toshkent – Mozori Sharif – Kobul – Hirot

BIR ASRLIK “O‘TKAN KUNLAR”

yetgan “O‘tkan kunlar”ning dunyo bo‘ylab sayohati boshlanganiga yarim asrdan oshgani ko‘pchilikka ma’lum gap.

Muhtaram adabiyot muhiblari, Abdulla Qodiriy ijodi ixlosmandlariga bugun yana bir quvonchli xabarni yetkazmoqchiman. Kechagina “Hilol nashr” muharriri, iste’dodli adib Erkin Malik menga “O‘tkan kunlar” romanining o‘ziga xos, ajoyib yangi nashrini tuhfa qildi. Ko‘rib, behad quvondim.

Asar bejirim karton qutichaga uchta kitob, maxsus sovg‘abop tarzda jamlanibdi. “O‘tkan kunlar”ning uch bo‘limi o‘z vaqtida, 1925–1926-yillarda alohida uchta kitob ko‘rinishida nashrdan chiqqan. Bugun o‘quvchilarga taqdim qilinayotgan “O‘tkan kunlar” romani aynan o‘sha ilk nashriga mos ravishda, har bir bo‘lim alohida kitob holida chop etildi. Eng muhimi, bu jamlanma kitob romanning arabiy imloda – o‘zbek mumtoz yozuvida bosmadan chiqqani bilan qimmatli va qadrlidir. Har bir bo‘limdan fotonusxa olinib, o‘sha zamonda ishlangan go‘zal muqovalari bilan birga bugungi o‘quvchilarga taqdim etilayotgan kitob yarmida romanning kirill yozuvidagi nusxasi ham bor.

Ikki yozuvdagi uchta sovg‘abop kitob – bu “O‘tkan kunlar” romaniga ehtiyoj hosilasi. Zero, bu umrboqiy asarni aynan Abdulla Qodiriy hazratlari yozgan yozuvda o‘qish istagida yurganlar ham bo‘lsa kerak, deb o‘yladim. Qolaversa, bu roman matnini qiyosiy-



genetik yo‘sinda o‘rganish uchun ham yosh tadqiqotchilarga bebaho manba sanaladi.

Chunki roman alohida kitob shaklida nashr qilinishidan oldin, ya’ni 1923–1924-yillarda birinchi bo‘lim fasllari “Inqilob” jurnalining bir qancha sonlarida e’lon qilingan edi. Jurnal iqtisodiy muammo ortidan yopilib ketgani bois, roman bosilishi ham to‘xtatiladi. Romanning birinchi bo‘limi kitob bo‘layotganida Abdulla Qodiriy Moskvaga o‘qishga ketadi. Nashr jarayoniga bevosita qatnasha olmaydi. Keyin u o‘z so‘zlari o‘zgargani, roman matni tahrirga uchraganiga guvoh bo‘ladi.

Har qanday asar ijodkor uchun yuragining bir parchasidek ardoqli, albatta. Bu fikrni Abdulla Qodiriy hazratlari “Har bir asarim – bir farzandim, chiroqchimdir”, tarzida bayon qiladi. Romanning 1925-yil bosilgan birinchi bo‘limidan adibning ko‘ngli to‘lmaydi.

Shu bois, o‘quvchilarga: “*Ro‘mon, deb sizga taqdim qiling‘an bu narsa dunyog‘a kelishi bilanoq baxtsizlikka uchray boshlag‘an edi: besh yillab bosila olmay yotdi. Nihoyat, bu kun bosilishi muyassar bo‘lg‘anida ham turlik zarbalarga uchradi; imlosi uch-to‘rtta imlochilarimiz tomonidan tuzatilib (!) ajoyib bir quroq holiga keldi, musahhihlarimizning musohalalari (beparvo qarash) orqasida texnika jihati ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan bir yo‘sunda chiqdi. Bularning sababi bosilish chog‘ida o‘zimning hozir bo‘la olmag‘anlig‘im bo‘ldi. Ammo bu o‘rinda o‘zimning jaholatim to‘g‘risida aytib turishni lozim ko‘rmayman-da, faqat o‘qug‘uchilarning afvularini so‘rayman.*

Ro‘monning ikkinchi bo‘limini bunday xatolardan sof bo‘la olishig‘a va’da bera olmasam-da, ammo bosilish taqdiri noshir qo‘lida bo‘lg‘anlig‘ini bildirib qo‘yaman”, deb uzrnoma yozadi va uning qayta nashri uchun harakatni boshlaydi.

Bu vaqtga kelib, romanning ikkinchi bo‘limi 1925-yil sanasi bilan dunyo yuzini ko‘radi. Shu orada romanning birinchi bo‘limi 1926-yili qayta takror bosmadan chiqadi. Uchinchi bo‘limi ham 1926-yili chop etiladi.

Abdulla Qodiriy “Uzr”i munosabati bilan bir taklif aytmoqchiman. Adibning bu gapi o‘z vaqtida vazifasini bajardi. Bu qodiriyshunoslar uchun zarur, albatta. Ammo uni romanning hozirgi davrdagi yangi nashrlariga kiritishga zarurat yo‘q, deb o‘ylayman.

Muhtaram “O‘tkan kunlar” romani o‘quvchilari, siz mazkur “Hilol nashr”da yangi bosilgan uchta bo‘limdagi 1926, 1925 va 1926 sanalariga nazaringiz tushib, savol tug‘ilmasligi uchun shu gapni yozdim.

Sovg‘abop uchta kitobdan iborat “O‘tkan kunlar” romani bu Abdulla Qodiriyning ko‘zi tirik mahalida bosilgan juda tabarruk nusxa. O‘quvchilar zavqlanib o‘qishlari shubhasiz. Biroq roman matni bilan qiziqqan, adib tahrirlari ustida tadqiqot olib boradigan matnshunoslar asarning “Inqilob”da bosilgan nusxasiga, shuningdek, 1933-yili lotin yozuvida nashr qilingan nusxasiga ham nazar solishlari lozim, deb hisoblayman. Bu nusxalardagi tafovutlarni, adibning so‘z qo‘llash va almashtirish mahorati bobida kamina ikkita maxsus maqola ham yozgan edim.

“O‘tkan kunlar” romani shu pallagacha o‘quvchilarning eng suyukli asarlaridan biri sifatida qo‘ldan qo‘ymasdan o‘qib kelindi va bundan keyin ham o‘qiladi. Roman bir necha avlod qodiriyshunoslar tomonidan qayta va qayta tadqiq qilindi va bundan keyin ham roman ustidagi tadqiqotlar, albatta, davom etadi. Har bir davrning adabiy tushunchalariga mos keladigan va dunyo adabiyotshunosligi adabiy-nazariy qoidalari, yangicha yondashuv usullari uchun ham manba bo‘la oladigan “O‘tkan kunlar”ning bunday o‘ziga xos, qiymatli nashri muhtaram o‘quvchilarimizga muborak bo‘lsin! So‘ngso‘z yozgan va nashr uchun o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shgan Xondamir va Sherkon Qodiriylar ham savobdan bahramand bo‘lishlari tabiiy.

Bahodir KARIM,
professor

QUTLOV



Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sango farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Umrning har bir daqiqasini ilm-fanga bag‘ishlab, kamol kasb etishni o‘ziga farz deb bilgan qadrli qodiriyshunos olimimiz, “Jadid” gazetasining doimiy mualliflaridan biri, professor Bahodir Karim 60 yoshni qarshiladi.

Muhtaram ustozni muborak sana bilan qutlab, umriga, ijodiga baraka tilaymiz.

TAHRIRIYAT.

“MILLIY QADRIYATLAR ATLASI”



Boshlanishi 1-sahifada.

Ma’lumki, har bir xalqning tarixi, ma’naviy olami, o‘ziga xos kelib chiqish ildizlari, hayot tarzi, bosib o‘tgan yo‘li qadriyatlari orqali namoyon bo‘ladi.

Bu qadriyatlar asrlar osha avlodlardan avlodga o‘tib, milliy o‘ziga xoslikning asosiy belgilari sifatida yashab qolaveradi. Aynan milliy qadriyatlarni, an’analarni unutmaslik, ularni saqlab qolish, zamon talablariga uyg‘unlashtirish hamda keng targ‘ib qilish yosh avlodda milliy g‘urur, vatanparvarlik, o‘zlikni anglash kabi muqaddas tuyg‘ularni shakllantiradi. Shu sababdan milliy madaniyatimiz, urf-odatlarimiz, ma’naviy-ma’rifiy merosimizni asrash, dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bugungi kunning eng muhim vazifalaridandir. Buning uchun eng samarali vositalardan biri esa, albatta, kitob. Qolaversa...

– Bugungi globallashuv sharoitida axborot almashinuvi tezlashib, turli madaniyatlar o‘zaro yaqinlashayotgan bir paytda milliy o‘zlikni asrab-avaylash, azaliy qadriyatlarni saqlab qolish muhim masalalardan biri, – deydi Otabek Hasanov – Chunki har bir millatning tarixi, ma’naviy dunyosi ana shu qadriyatlar



asosida shakllanadi. Bu loyihani endi boshladik va davom ettirishni rejalashtirganmiz. Milliy an’analarni unutmaslik, ularni kelgusi avlodlarga bus-butun, ziyon-zahmatsiz yetkazish Vatanga bo‘lgan muhabbat va hurmatni mustahkamlaydi.

Kitob-albomni tayyorlash jarayonida “Qadriyatim.uz” elektron platformasi ishlab chiqilgan. Platforma doimiy yangilab borilib, chet ellik foydalanuvchilar va xorijdagi vatandoshlar uchun moddiy, nomoddiy madaniy meros haqida axborot beradigan interaktiv ma’lumot bazasi hisoblanadi.

Loyiha doirasida yurtimizning barcha hududi qamrab olingan bo‘lib, har biriga xos qadriyat, urf-odat va an’analar, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, tarixiy yodgorliklar hamda milliy madaniyatga oid materiallar yig‘ilib, tizimli ravishda tahlil qilingan hamda ilmiy-publitsistik uslubda qayta ishlangan. Kitob o‘zbek, ingliz, rus tillarida nashr etilib, milliy qadriyatlarimizni xalqaro miqyosda tizimli targ‘ib qilish, madaniy merosimizni jahon sivilizatsiyasi kontekstida munosib namoyon etish hamda O‘zbekistonning ma’naviy brendini shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, milliy qadriyatlar muayyan xalqning asrlar davomida shakllangan hayot tarzi, tafakkuri, ma’naviy dunyosi va ijtimoiy munosabatlarini belgilab beruvchi ustuvor mezondir. Xalqimizning milliy qadriyatlari ham ming yillik tarix, turli sivilizatsiyalar kesishuvi, islom ma’naviyati va mahalliy urf-odatlar uyg‘unligi asosida shakllangan.

Mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, mardlik, matonat, halollik, oqibat kabi o‘nlab xislatlar o‘zbek xalqiga xos eng yorqin fazilatlardandir. Xalqimiz uchun milliy qadriyatlar baland shior yoki marosim uchungina saqlanadigan an’analar emas. Ular kundalik hayotda, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, ma’lum bir millatga taalluqli san’at asarlari, hunarmandlik namunalarida o‘sha elning fe’l-atvori, tabiati balqib turadi. Kamalakdek serjilo atlas, darhaqiqat, o‘zbek millatining rango-rang sajiyasi va ta’bidan darak berib, asrlar osha bashariyatni o‘ziga maftun etib kelayotir.

Axborot asri bo‘lgan bugungi davrda mavjud an’analarimiz va qadriyatlarimiz davomiyligini ta’minlash borasida “Milliy qadriyatlar atlasi” kabi loyihalar qamrovi kengayib, davomiylik kasb etishiga erishish kerak.

Otabek RAHIM

TILBILIM

Qaldirg‘och



Ey qaldirg‘och, shoshqaloq sanam,
Ketma, qorlar yog‘sa nima g‘am,
Qush iniga tunda yoqib sham
Tutgan elni qaydan topasan?

MUNAVVARA USMONOVA

Bu shoshqaloq sanamning nomi tilimizda qadimdan yashab kelayotgan so‘z bo‘lib, dimog‘ingizga ko‘klam isini olib keladi. U dastlab *kichkina, chaqqon, qora-ola rangli qush* nomini bildirgan bo‘lsa, keyinchalik biror hodisaning boshlanishi, ijobiy o‘zgarishlarning darakchisi ma’nosida ham qo‘llanila boshlagan. Bejiz qaldirg‘ochni *“bahor elchisi”* deyishmaydi axir.

Izohli lug‘atlarda qaldirg‘och, avvalo, qush sifatida ta’riflanadi. Tarixiy shakllariga e’tibor qaratilsa, uning dastlab *qarg‘ilač*, keyinchalik *qarlig‘ač, qadirg‘ač* shaklida bo‘lganini ko‘rish mumkin. O‘zgarishlar asosan talaffuzdagi soddalashuv va fonetik moslashuv natijasida yuz bergan. “Devonu lug‘atit turk” asarida Mahmud Koshg‘ariy bu qush nomini *qarg‘ilač* shaklida keltiradi. Qadimgi turkiy lug‘atda *qarg‘ilač* so‘zining ko‘rshapalak ma’nosi borligi ham aytib o‘tilgan.

Oltoy tillari etimologik lug‘atida *qaldirg‘och* so‘zi juda qadimiy *“qora, qoramtir, qush”* ma’nosini bildirgan proto-turkiy k(i)ar ildizi bilan bog‘lanadi. Bu ildiz turkiy tillar bilan birga mo‘g‘ul va tungus tillarida ham uchrab, qush nomlarini ifodalashga xizmat qilgan. Ehtimol, qadimgi davrlarda qushlar hozirgi biologik tasnif asosida emas, balki tashqi belgilariga – rangiga va umumiy qiyofasiga qarab nomlangandir. Qarg‘a, qarqara qushlari o‘zagi ham kar ildiziga bevosita aloqador. G‘arb tilshunoslari fikricha, kar ildizi qushning tovushi yoki harakatiga taqlid qiluvchi so‘z bo‘lishi mumkin, ya’ni u ifodaviy, onomatopoetik xususiyatga ega.

Qaldirg‘och so‘zi tarixi va shakl bosqichlariga bir nazar tashlashning o‘ziyoq tillarning umumiy leksik qatlamidagi mushtarakligi, insoniyatning tabiatni kuzatish va uni nomlashdagi yaratuvchanligini ko‘rsatadi.

Iroda RAHMONALIYEVA

O‘Y



AZADAGI “TO‘Y”

Sarlavhani o‘qib hayron bo‘lmang, bugungi azalardagi tayyorgarlik va ovoragarchilik ham bir to‘ydan kam emas. To‘ylardagi dabdabani kamaytirish haqida ibratli chiqishlar ko‘p. Ammo aza va unga oid marosimlar e’tibordan chetda qolayotganday.

Aza – o‘ta nozik marosim. Avvalo, bu bir inson umrining poyoniga yetishi, tiriklik va yaqinlaridan uzilib, boqiy dunyoga o‘tishi jarayoni. Qolaversa, bunda marhumga bo‘lgan hurmat, diniy va asrlar davomida shakllangan milliy urf-odatlar uyg‘unlashib ketgan. Ana shular orasida so‘nggi asrlarda sekin-asta xurofiy, bid’atiy mantiqsiz odatlar ham qo‘shilib qolganki, ularning asosi va sababini o‘ylab, zamirini topolmaysiz. Garchi janozada jamoat bo‘lish, keyin ham ta’ziya bildirish insoniy qarz va burch bo‘lsa ham, bunga shunchaki ko‘ngil ishi deb qarash bilan cheklanmaymiz. Uni turli marosimlar, atributlar bilan to‘ldiramiz. O‘zim guvoh bo‘lgan voqealar haqida ikki og‘iz to‘xtalsam. Xulosa o‘zingizdan.

* * *

Kimdir vafot etsa, uning oilasi marhumni munosib dafn etishni istaydi. Ammo bu istak ko‘pincha ikki tushuncha bilan og‘irlashib ketadi: go‘yoki qancha ko‘p mablag‘ sarflansa, marhum narigi dunyoda shuncha farog‘atda bo‘ladi va bu xarajatlar qilinmasa, odamlar nima deydi, deb o‘ylaymiz. O‘lik hali mozorga yetmasdan, uyda dasturxon tuzash, qozon osish boshlanib ketadi. Xuddi ochlarga ehson tarqatilayotganday, eshikdan kirgan kimsani ovqatga taklif qilamiz.

Bu o‘sha kun bilan tugasa, koshki. Keyin “uch”, “yetti”, “yigirma”, “qirq”, “yuz”, “yil” oshi deb, oralatib har “payshanba-pirtak” elga ovqat tarqatiladi. Ajablanarlisi, tekin oshga xo‘randa ham topila qoladi. Odatda, “navbatchi” ta’ziyaxonlar bo‘lib, ular kunda-shunda. Hayron qoladi kishi: marhum tirigida oyda-yilda ostona hatlamaganlar o‘limidan keyin chaqir ostonalarni ham silliqlab, eshik oshiq-moshig‘ini chiqarib yuboradi. Yaqinlar ham marhum qabri boshiga haybatidan ot hurkadigan marmartoshlar qo‘yib, kerak bo‘lsa, atrofini ham marmar bilan o‘rab tashlaydi. Abdulla Oripov yozgan ekan:

Bir xalqda g‘alati odat bor edi:
O‘lganlar aziz-u tirik xor edi.
Sevgan odamiga tilardi ajal,
O‘tgach, ulug‘lashga intizor edi.

Bundoq surishtirsangiz, ota-onasi qabrini million-million xarj qilib, “marmar saroy” qilayotganlar tirigida ular o‘tiradigan uyni ta’mirlab qo‘ymagan bo‘ladi. Qabr boshiga ko‘chat ekib, atrofini gulzor qilsa, boshqa gap. Ham savob, ham obodlik. Ammo quruq tosh faqat o‘zimizning kimligimizni ko‘rsatib qo‘yish uchun, xolos. Yana “farzandlaringizdan” deb yozib qo‘yamiz!

Negadir, janoza va uning atrofidagi rusumlarga pul ham topila qoladi. “Kambag‘al bo‘lsang, ko‘chib ko‘r”, degan maqolni “kambag‘al bo‘lsang, o‘lib ko‘r”, deb o‘zgartirish kerakka o‘xshab qoldi. Xo‘p, pul bor ekan, yo‘q bo‘lsa topilarkan, nega shu savilni ota-ona, turmush o‘rtoq, farzandlar, yaqinlar tirikligida sarflamaymiz? Yoshi ulug‘larni sihatgohlarga jo‘natamizmi, oilaviy sayohatga chiqamizmi, bir joyimiz og‘risa, shifokorga borib, risoladagidek davolanamizmi? Topilar ekan-ku, pul degan matoh!

Me’yorida bo‘lsa, marhumni yod etib ehson berish, taom tarqatish yaxshi. Faqat buning ham o‘z odobi bor-ku! To‘q odamga dasturxon yozib, kim qancha savob olar ekan, bilmadim. Marhumning nomidan bog‘ yaratsa, ilmi toliblarga qarashsa, mahallaga bitta chiroq o‘rnatib bersa, boshqa gap. Aksar hollarda doshqozonda osh qilib ehson tarqatayotganlarning o‘zi ehsonga muhtoj toifa bo‘ladi.

* * *

Motam libosi azadorni bir yilgacha jamoatga qo‘shilishdan to‘xtatib turadi. G‘alati paradoks: ta’ziyada sabrli bo‘ling, ko‘niking, deyilsa-da, keyin ko‘nikib yashashga qo‘ymay, ustiga “ko‘k”, “qora”, “oq” ko‘ylaklar kiydirib qo‘yilsa...

Islomda aza uch kun. Eri o‘lgan ayolga esa to‘rt oy-u o‘n kun. Qolganlar maxsus kiyim kiysa-kiymasa, anduhi tarqamaguncha shundoq ham o‘yin-kulgi yuragiga sig‘maydi. Odatda, bu kiyimlar azbaroyi marhumga muhabbatdan emas, odamlarning gap-so‘zidan uyalganday kiyiladi.

* * *

Kimning qachon bu dunyoni tark etishi ma’lum emas. Hatto, shifokorlar falon oy yashaysan, desa ham, kuni, soatini aytib bera olmaydi. Bu ham zilzila, to‘fon, vulqon otilishi kabi kutilmagan holat. Ammo bo‘lishi muqarrar.

Ba’zida yaqinlarning vafoti munosabati bilan yaqin qolgan to‘ylar orqaga suriladi. Bu endi insofga ham, odamgarchilikka ham to‘g‘ri kelmaydi. Xayrning boshini bog‘lab nima qilamiz? Eng yomoni: qolgan ishga qor yog‘adi. Vaqt cho‘zilgach, ikki o‘rtada yaxshi-yomon gap ko‘payadi, qolaversa, hozirgi yoshlarning ishkali o‘zidan oldin yuradi.

* * *

Keling, dunyodagi musulmon mamlakatlarida aza ma’rakalari qay tarzda o‘tkazilishini ko‘rib chiqamiz:

Qozog‘istonda aza marosimlarini kamchiqim o‘tkazishga qat’iy qarashadi. Marhumning yettisi va qirqi oila davrasida tilovat tushirib, yod etiladi. Keng dasturxon yozib, katta marosimlar o‘tkazish ma’qullanmaydi.

Arab mamlakatlarida asosan bir yoki uch kun davom etishi mumkin. Ta’ziyaga kelganlarga qahva yoki xurmo beriladi. Qirqinchi kuni oila-a’zolari marhumning haqqiga duo qilib, qabrini ziyorat qiladi.

Afrika mamlakatlarida esa marosimlar islomiy qoidalarga juda yaqin, shu bilan birga, mahalliy an’analar bilan boyitilgan. Soddalik, jamoaviy qo‘llab-quvvatlash seziladi, lekin ortiqcha dabdabaga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu mamlakatlarda marosimlar uch kundan keyin deyarli tugaydi. Ularda yettisi, qirqi degan ma’rakalar yo‘q.

Turkiyada ham shunday. Marosim uch kun, dasturxon yozilib, marosim tashkil etilmaydi. Ta’ziyaga kelganlar uchun qahva beriladi, xolos. Uch kun mobaynida qarindoshlar va qo‘shnilardan taom keltiriladi.

* * *

Xalqimizda “To‘yniki bir kun, o‘likniki bir umr”, degan maqol bor. To‘y bir kunda o‘tadi, chunki unga uzoq vaqt hozirlik ko‘rilib, jamg‘arib boriladi. Ammo kutilmagan azadagi isrof ba’zan xonadonni yillab, hatto umrbod qarz botqog‘iga botirib qo‘yadi. Aytingchi, bularning qaysi biri islomga xos?

Aza uch kun ekanligi hadislarda aytilgan bo‘lsa, demak, uni sun’iy ravishda uzaytirish, dabdabaga aylantirish dinimiz ruhiga ham zid.

Barchaning sharoiti va imkoni bir xil emas. Shuning uchun har kimning qurbatini inobatga olib tutum tutgan ma’qul.

Ma’rakalarda isrof emas, insof ustuvor bo‘lishi kerak.

Malohat YO‘LCHIYEVA

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 700
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 626
Lotin yozuvida – 12 074
Media kuzatuvchilar – 78 508
Buyurtma: G – 240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI